

**TOSHKENT SHAHRIDAGI XALQARO VESTMINSTER UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.22/30.12.2019. I.85.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT SHAHRIDAGI XALQARO VESTMINSTER UNIVERSITETI

GAPPAROVA DILDARA BAXTIYOROVNA

**O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH
DAVRIDA ISTE'DODLARNI BOSHQARISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
economic sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Gapparova Dildara Baxtiyorovna

O'zbekistonda raqamlashtirish va avtomatlashtirish davrida
iste'dodlarni boshqarish 3

.....

Gapparova Dildara Baxtiyorovna

Talent management in the age of digitalization and automation
in Uzbekistan..... 33

.....

Гаппарова Дильдара Бахтиёровна

Управление талантами в эпоху цифровизации и
автоматизации 63

Узбекистане.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of publications

Список опубликованных работ 69

**TOSHKENT SHAHRIDAGI XALQARO VESTMINSTER UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.22/30.12.2019. I.85.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT SHAHRIDAGI XALQARO VESTMINSTER UNIVERSITETI

GAPPAROVA DILDARA BAXTIYOROVNA

**O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH VA AVTOMATLASHTIRISH
DAVRIDA ISTE'DODLARNI BOSHQARISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/I733 raqam

bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.wiut.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Karimov Farxod Pulatovich iqtisodiyot fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	Muradova Husniya Muhiddinovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Raxmanbayeva Roza Abduraxmanovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.I.85.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» ___ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi, 12-uy. Tel.: (99871) 238-74-00; faks: (99871) 236-35-99; e-mail: info@wiut.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti Axborot-resurs markazida (6-raqamli reestr) tanishish mumkin (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi, 12-uy. Tel.: (99871) 238-74-01; faks: (99871) 238-74-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil _____da tarqatildi.
(2025-yil 17-dekabrdagi 6-raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Islamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., prof.

N.X. Rashitova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n.

R.R. Abduraupov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan va texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish davrida inson kapitali va iste'dodli kadrlarni boshqarish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, jahon inson resurslarini boshqarish bozori 2022-yilda 21,69 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, prognozlarga ko'ra, mazkur bozorning 2023-yildan 2030-yilgacha yillik o'sish sur'ati 12,7 foizni tashkil etadi. Ushbu o'sish inson resurslari axborot tizimi, ya'ni Human resource information system (HRIS) tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi soddalashtirilgan inson resurslari (HR) boshqaruvi jarayonlariga ehtiyoj ortishi bilan bog'liq¹. Ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarning yirik kompaniyalarida iste'dodlarni boshqarish, jumladan, ishga qabul qilish, o'qitish va rivojlantirish amaliyotida inson resurslari axborot tizimlarini qo'llash, xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va kompaniyalarning umumiy faoliyatini yaxshilash tendensiyasida muhim o'rin tutadi.

Jahonda inson kapitalini samarali boshqarish va rivojlantirish orqali kompaniyalar o'zgaruvchan va raqobatbardosh biznes muhitida faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega iste'dodli kadrlarni tanlash va samarali boshqarish muammolariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar orqali, tashkilotlarda strategiyalar zamonaviy global tendensiyalar asosida shakllantirilib, xodimlar bilan ishlashda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish hisobiga eng samarali usullarni topish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bunday ilmiy yondashuvlar o'zaro munosabatlar ekotizimini shakllantirish, xodimlar samaradorligi va tashkilotga sadoqatini oshirishda, katta hajmli ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va HR jarayonlarini soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy kompaniyalarda masofaviy va gibril ishlash modellari, xodimlar farovonligi va inklyuzivlik singari nisbatan yangi amaliyotlar ish yuritishning yangicha yondashuvlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tendensiyalarni faollashtiradi.

O'zbekistonda iqtidorli kadrlarni boshqarish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarga muhim masala sifatida e'tibor qaraladi. Mamlakatimiz jahon mehnat bozoriga integratsiyalashgani sari, tashkilotlar ham mahalliy, ham xalqaro ishtirokchilar tomonidan kuchayib borayotgan raqobatda ustunlikka erishish uchun tez o'zgaruvchan biznes muhitiga moslashishi, kuchli iqtidorli kadrlarni boshqarish strategiyalarini amalga oshirish va HR jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir"². Shu sababdan, respublikamizda

¹ Grand View Research. 2023. "Human Resource Management (HRM) Market | Industry Report, 2030." Grandviewresearch.com. 2023. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/human-resource-management-hrm-market>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasini 78-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6679>.

faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar uzluksiz kasbiy ta'limni yo'lga qo'yish, HR texnologiyalari va analitikani joriy etish, madaniyatlararo farqlarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirilgan amaliy yechimlarni ishlab chiqish maqsadida keng ko'lami tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 24-maydagi PQ-162-sonli "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 21-fevraldagi

PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 22-sentabrdagi Vazirlar Mahkamasining 492-sonli "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublikada ilmiy-texnologik taraqqiyotning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" strategik yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bir qator olimlar jumladan M.G.R.Alam³, A.M.Oehley⁴, G.M.Quaosar⁵, M.A.Rahman, X.Qi va M.S.Jinnah⁶, D.M.EINakib⁷, Liu D. va M. Darbandi⁸, G.M.A.Ali Quaosar va Md.S.Rahman⁹, N.A.Beadles, C.M.Lowery, K.Johns¹⁰, T.Karaboğa¹¹, J.G.Harris, E.Craig va D.A.Light¹² va boshqalar tomonidan iste'dodli kadrlarni inson resurslari axborot

³ Alam M. G. R. [и др.]. Critical Factors Influencing Decision to Adopt Human Resource Information System (HRIS) in Hospitals // PLOS ONE. 2016. № 8 (11). С. e0160366.

⁴ Oehley A. M. The development and evaluation of a partial talent management competency model // scholar.sun.ac.za [Электронный ресурс]. URL: <https://scholar.sun.ac.za/handle/10019.1/>

⁵ Quaosar G. M. A. A. Determinants of the Adoption of Human Resources Information Systems in a Developing Country: An Empirical Study // The International Technology Management Review. 2017. № 3 (6). С. 82.

⁶ Rahman M. A., Qi X., Jinnah M. S. Factors affecting the adoption of HRIS by the Bangladeshi banking and financial sector // Cogent Business & Management. 2016. № 1 (3).

⁷ EINakib D. M. [va boshqalar]. The Effect of HRIS Adoption on Vodafone Egypt Firm's Performance // Journal of Human Resource and Sustainability Studies. 2021. № 02 (09). С. 173–192.

⁸ Liu D., Darbandi M. Assessing the impact of cloud-based services on the talent management of employees // Kybernetes. 2021. № 6 (51).

⁹ Ali Quaosar G. M. A., Rahman Md. S. Human Resource Information Systems (HRIS) of Developing Countries in 21st Century: Review and Prospects // Journal of Human Resource and Sustainability Studies. 2021. № 03 (09). С. 470–483.

¹⁰ Beadles N. A., Lowery C. M., Johns K. The Impact of Human Resource Information Systems: An Exploratory Study in the Public Sector // Communications of the IIMA. 2015. № 4 (5).

¹¹ Karaboğa T. The Impact of Industry 4.0 on Talent Management Practices // Advances in Human Resources Management and Organizational Development. 2023. С. 1–19.

¹² Harris J. G., Craig E., Light D. A. Talent and analytics: new approaches, higher ROI // Journal of Business Strategy. 2011. № 6 (32). С. 4–13.

tizimlari orqali boshqarish va inson resurlarini menejmenti jarayonlarining raqamli transformatsiyasi mavzusidagi ilmiy va amaliy xalqaro tadqiqotlar o'tkazilgan.

Rossiyalik olimlar E.I.Leskina¹³, E.P.Barinova, E.N. Sheremetyeva va A.S.Zotova¹⁴, V.I.Kabalina, O.V.Mondrus¹⁵, E.A.Panova, N.N. Oparina va L.V.Bondareva¹⁶ va boshqalar ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borganlar va iste'dodlarni axborot texnologiyalarini qo'llash orqali zamonaviy boshqarish yo'llarini o'rganishga munosib hissa qo'shganlar.

B.Ismailov¹⁷, V.Levinskaya¹⁸, R.R.Oqmullayev¹⁹, A.H.Aajaz, O.A.Kayumov va N.R.Kayumova²⁰ singari respublikamiz olimlarining inson resurslarini va iste'dodlarni raqamli transformatsiya orqali boshqarishga oid ilmiy ishlari nisbatan kichik hajmda amalga tatbiq etilgan, bu holat iste'dodlarni boshqarish bo'yicha axborot tizimlaridan foydalanish respublikamizda hali dastlabki bosqichida ekanligini ko'rsatadi.

Garchi yuqorida keltirilgan tadqiqotchilar inson resurslarini boshqarish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini o'rganishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsalar-da, ularning xulosalari asosan tavsifiy tahlillar bilan cheklangan. Bu tadqiqotlarda mamlakatimizning o'ziga xos sharoitiga mos empirik ma'lumotlar yetarlicha taqdim etilmagan. Bundan tashqari, ular asosan rivojlangan davlatlar tajribasidan olingan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu esa ularning qo'llanilish doirasi va mamlakatimiz rivojlanishida duch kelayotgan o'ziga xos muammolarni hal qilishdagi potentsial ta'sirini cheklaydi.

Rivojlangan mamlakatlar dinamikasi ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, bir qator olimlar natijalarning shakllanishida madaniyat, an'analar, biznes amaliyoti va davlat qonunchiligi singari turli omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadilar. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning o'ziga xos sharoitida chuqur tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz siyosiy, diniy va madaniy qadriyatlarini, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur omillarni o'rganish orqali

¹³ Leskina E. I. [va boshqalar.]. Digital Talent Management For Human Capital Development // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. 2022.

¹⁴ Barinova E. P., Sheremetyeva E. N., Zotova A. S. Digital Talents: Realities and Prospects // Lecture Notes in Networks and Systems. 2019. C. 327–334.

¹⁵ Kabalina V. I., Mondrus O. V. Contextualizing Talent Management in Russian IT Companies // Russian Management Journal. 2018. № 1 (16). C. 5–36.

¹⁶ Panova E. A., Oparina N. N., Bondareva L. V. Talent Management: Tasks and Challenges for a Digital Tomorrow // Lecture notes in networks and systems. 2022. C. 288–294.

¹⁷ Ismailov B. Uzbekistan in the Process of Digitalization // Centre for Economic Research and Reforms under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan [Электронный ресурс]. URL: <https://eupoliticalreport.com/uzbekistan-in-the-process-of-digitalization/>.

¹⁸ Levinskaya V. Digital Transformations in Uzbekistan: Technological and Sociocultural Factors // Zenodo. 2024. № 1 (1).

¹⁹ Oqmullayev R. R. Human Resource Management Roles in the Condition of Industry 4.0 // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. 2022. № 8 (10). C. 198–204.

²⁰ Aajaz A. H., Kayumov O. A., Kayumova N. R. Artificial Intelligence in The Management Of Intellectual Resources Of Enterprises In The Conditions Of The Digital Economy In Uzbekistan // Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). 2023. № 1 (A).

ushbu tadqiqot takomillashtirish zarur bo'lgan sohalarni aniqlash va hozirgi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida duch kelayotgan qiyinchiliklarni hisobga olib, ilmiy izlanish olib borish maqsad qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent xalqaro Vestminster universitetining ilmiy tadqiqot rejasi asosida "Raqobatbardosh bozor sharoitida real sektor va kompaniyalarni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" davlat fundamental tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda raqamlashtirish va avtomatlashtirish davrida iqtidorlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iste'dodlarni boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish va bu jarayonning asosiy bosqichlarini aniqlash;

raqamli transformatsiya inson resurslarini boshqarish tizimini qanday qayta shakllantirishini o'rganish va texnologik innovatsiyalar orqali iste'dodlarni boshqarishni tadqiq qilish;

"texnologik-tashkiliy-tashqi" (TTT) va "uzoq muddatli orientatsiya" omillarining inson resurslari axborot tizimlarini joriy etishga bo'lgan ta'sirini tadqiq qilish;

O'zbekistonda iqtidorli kadrlarni inson resurslari axborot tizimlari orqali boshqarishning iqtisodiy-matematik modelini yaratish;

O'zbekistonda iste'dodlarni inson resurslari axborot tizimlari orqali boshqarish tadqiqotlari uchun miqdoriy usul metodologiyasini shakllantirish;

O'zbekistonda iste'dodlarni inson resurslari axborot tizimlari orqali boshqarishning iqtisodiy-matematik modelini ekonometrik tahlil qilish;

O'zbekistonda iste'dodlarni inson resurslari axborot tizimlari orqali boshqarishni amalga oshirish bo'yicha tahlil natijalariga asoslangan yo'l xaritasini yaratish;

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar uchun inson resurslari axborot tizimini joriy etishning taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda raqamlashtirish va avtomatlashtirish davrida iqtidorlarni boshqarish takomillashtirish yuzasidan ilmiy va amaliy tavsiyalar berish;

Tadqiqot ishining obyekti O'zbekistonda korxonalar va tashkilotlarning iste'dodlarni inson resurslari axborot tizimlari orqali boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda iste'dodlarni inson resurslari axborot tizimlari orqali boshqarish jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy va tashkiliy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, deduksiya, analiz va sintez, chiziqli va logistik regressiyalar hamda noparametrik testlar singari ekonometrik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, Tornatskiy va Fleysherning "texnologik, tashkiliy va tashqi omillari" asosida iqtidorlarni samarali boshqarishning yangi modeli ishlab chiqilib, bunda tashkilotlardagi IT infratuzilma, kadrlar bo'limi xodimlarining IT salohiyati va top-menejment qo'llab-quvvatlashining iste'dodlarni boshqarish samaradorligiga ta'siri raqamlarda tasdiqlangan;

O'zbekistondagi kichik korxonalar iste'dodni jalb qilish, rivojlantirish va ushlab qolishda yirik tashkilotlarga nisbatan samarador ekani statistik dalillar bilan asoslanib, korxonalar hajmi va iste'dodlarni boshqarish natijalari o'rtasida teskari proportsionallik aniqlangan ($p\text{-value}=0,006$; $b=-0.161$). Yirik va kichik korxonalarda iste'dodlarni samarali boshqarish strategiyalari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqarilgan;

Hofstedening "uzoq muddatli orientatsiya" mezoni texnologik omillar va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikka moderatsion ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, O'zbekiston sharoitida iste'dodlarni samarali boshqarish va rivojlantirish jarayoni tashkilotlarning uzoq muddatli strategik yo'nalganligi bilan bog'liqligi asoslangan;

inson resurslari axborot tizimlari (HRIS) "texnologik-tashkiliy-tashqi omillar" va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasida vositachi (mediator) sifatida ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslandi, hamda O'zbekistonda HR texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish bo'yicha 2025-2030-yillar uchun yo'l xaritasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

HR boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va iste'dodli kadrlar boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi HRIS tizimlarini joriy etishda tashkilotlar IT infratuzilmasi va xodimlarning IT kompetensiyasini rivojlantirishga sarmoya kiritishni davom ettirishlari kerakligi asoslab berilgan;

kichik korxonalar uchun iste'dodli kadrlar boshqaruvida yanada moslashuvchan, innovatsion tizimlarni ishlab chiqish va yirik tashkilotlarda xodimlarni boshqarish jarayonlarini optimallashtirishga doir takliflar berilgan;

iste'dodlarni HRIS tizimlari orqali boshqarishni amalga oshirish bo'yicha iqtisodiy-matematik modelning empirik tahlil natijalariga asoslangan yo'l xaritasi yaratilgan;

O'zbekiston sharoitida HR texnologiyalarni joriy etish samaradorligi tashkilotning ichki madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonini va korxonaning kelajakka yo'naltirilga ichki madaniyatiga muvofiqlashtirish zarurati asoslangan;

inson resurslari axborot tizimlarini amaliyotga joriy etish va iste'dodlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotni haqiqiy va original qiladigan muhim tanlama hajmiga ega so'rovlarda to'plangan ma'lumotlar, asosan, inson resurslarini boshqaruv (HR) menejerlari va sohaga oid mutaxassislardan olingan birlamchi miqdoriy ma'lumotlardan iborat. Bundan tashqari, Cronbach's Alpha, Kaiser-Meier-Olkin (KMO) Score, Bartlett's Test, Average Variance Extracted (AVE) va Composite Reliability (CR) singari ekonometrik tahlil natijalari tadqiqotning ishonchlilik va haqiqiylik (reliability

and validity) darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqiy natijani ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati uning keng qamrovli tahlili va O'zbekistonda iqtidorli kadrlarni orqali boshqarishni takomillashtirish bo'yicha o'ziga xos kontekstga ega tavsiyalardan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy iqtidorli kadrlarni boshqarish sohasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, xususan, O'zbekistonda iqtidorli kadrlarni boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va inson resurslarini boshqarish axborot tizimlari va maxsus boshqaruv platformalarini joriy etish orqali bu sohani takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan kelib chiqadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Raqamlashtirish va robotlashtirish davrida iqtidorlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, Tornatskiy va Fleysherning "texnologik, tashkiliy va tashqi omillari" asosida iqtidorlarni samarali boshqarishning yangi modeli ishlab chiqilib, bunda tashkilotlardagi IT infratuzilma, kadrlar bo'limi xodimlarining IT salohiyati va top-menejment qo'llab-quvvatlashining iste'dodlarni boshqarish samaradorligiga ta'siri raqamlarda tasdiqlanishi "Angelsey Food" XK MCHJ tomonidan Korzinka supermarketlar tarmog'ida iste'dodlarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Angelsey Food" XK MCHJning 2025-yil 7-martdagi 732-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Korzinka" supermarketlar tarmog'i maxsus texnik ta'minot va kadrlarning IT-salohiyatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishi hamda yuqori rahbariyatning kuchli ko'magi kompaniyaning iqtidorli kadrlarni yollashi, rivojlantirishi va ushlab qolishidagi samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Kompaniya xodimlari ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus mentorlik dasturlari hamda onlayn va oflayn o'quv seminarlari tashkil etilgan va 2024-yil 18-oktabrda kompaniya HR bo'yicha innovatsion amaliyotlari uchun respublika Employer Brand Award & Summit 2024 (EMBRAS)da "Talent Development" (Iste'dodlarni rivojlantirish) mukofotiga sazovor bo'lishiga erishilgan;

O'zbekistondagi kichik korxonalar iste'dodni jalb qilish, rivojlantirish va saqlab qolishda yirik tashkilotlarga nisbatan samarador ekani statistik dalillar bilan asoslanib, korxonalar hajmi va iste'dodlarni boshqarish natijalari o'rtasida teskari proporsionallik aniqlanganligi ($p\text{-value}=0,006$; $b=-0.161$) hamda yirik va kichik korxonalarda iste'dodlarni samarali boshqarish strategiyalari bo'yicha amaliy tavsiyalarni qo'llagan holda "Korzinka" supermarketlar tarmog'i eng yirik ish beruvchi kompaniyalardan biri sifatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kompaniyada ishlashning asosiy afzalliklarini namoyish etish orqali iste'dodli xodimlarni ishga jalb qilishning yangi strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan ("Angelsey Food" XK MCHJning 2025-yil 7-martdagi 732-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 2023-yilda "Ishimiz yanada yaxshiroq!" loyihasi orqali iste'dodli kadrlarni jalb qilish va ularni kompaniyaning ichki trening markazi orqali o'qitib, ishga tayyorlash imkoniyati yaratilgan va bu yangilik yirik reklama kompaniyasida targib qilingan. Loyiha ishga tushirilganidan so'ng kompaniyaning ish izlovchilar

oqimi besh baravarga ko'paygan va nomzodlar anketalarining umumiy soni 35 mingga yetgan. 3 oyda 1 640 nafar yangi iste'dodli xodimlar "Korzinka" supermarketlar tarmog'ida ishga olinishiga erishilgan;

Hofstedening "Uzoq muddatli orientatsiya" mezoni texnologik omillar va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikka moderatsion ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, O'zbekiston sharoitida iste'dodlarni samarali boshqarish va rivojlantirish jarayoni tashkilotlarning uzoq muddatli strategik yo'nalganligi bilan bog'liqligi asoslanishi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, asosiy e'tiborni xodimlarning strategik va texnologik bilimlarini oshirishga qaratilishiga sabab bo'lgan. Natijada Palata doirasida kelajak uchun barqaror o'sishga ko'maklashuvchi iste'dodlarni boshqarish bo'yicha yangi strategiya joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-Sanoat Palatasining 2025-yil 17-martdagi 02-07-27-3029-sonli ma'lumotnomasi). Ma'lumotlarga asoslangan mazkur yondashuv uzoq muddatli maqsadlarga erishish, xususan, xodimlar malakasini oshirish va tashkilotning doimiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. 2024-yilda 50 nafar iqtidorli kadrlar bir qator xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniya, Chexiya, Turkiya, Koreya, Pokiston singari mamlakatlarga xorijiy tajriba orttirish uchun jo'natilgan;

inson resurslari axborot tizimlari (HRIS) "texnologik-tashkiliy-tashqi omillar" va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasida vositachi (mediator) sifatida ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonda HR texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish bo'yicha 2025-2030-yillar uchun yo'l xaritasi ishlab chiqilishi "Korzinka" supermarketlar tarmog'ida "Raqamlashtirilgan professional o'sish" tizimini joriy etishda foydalanilgan ("Angelsey Food" XK MCHJning 2025-yil 7-martdagi 732-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "SAP SuccessFactors" elektron platformasi asosida kompaniya xodimlarining xizmat pog'onalarida o'sishining shaffofligi oshgan. Xodimlar soni yil davomida sezilarli darajada 27 % ga oshgan va 2025-yil fevral holatiga ko'ra, "Korzinka" supermarketlar tarmog'i tizimida 12,7 mingdan ortiq kishi ish bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta konferensiyada, jumladan 3 ta nufuzli xalqaro tadbir va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida batafsil taqdim etilgan va tahlil qilingan. Bu esa soha mutaxassislari o'rtasida mazmunli munozaralar va qimmatli fikr-mulohazalarni yuzaga keltirgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, bu sohaning keng qamrovli o'rganilganligini ko'rsatadi. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola nashr etilgan. Maqolalarning 3 tasi nufuzli milliy jurnallarda chop etilgan bo'lib, bu mahalliy ilmiy muhitga qo'shilgan muhim hissa hisoblanadi. 5 ta maqola esa ta'sir ko'yeffitsiyenti yuqori bo'lgan nufuzli xalqaro jurnallarda nashr etilgan,

shuningdek 1 ta maqola Scopus indeksiga kiruvchi xalqaro jurnalda chop etilgan, bu esa tadqiqotning global ahamiyati va e'tirofini qayd etadi.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Shuningdek, u qo'shimcha materiallar bilan uch ilovani o'z ichiga oladi. Dissertatsiyaning umumiy hajmi

153 sahifadan iborat bo'lib, unda tanlangan mavzu atroflicha o'rganilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Iste'dodlarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy adabiyotlarda iqtidorlarni boshqarishga oid turli nazariyalar va tarixiy rivojlanish tadqiq etilgan. Mazkur bobda iqtidorlarni boshqarishni ta'riflovchi asosiy tushunchalar atroflicha o'rganilib, iqtidorlarni boshqarish asosiy uchta nazariyalari batafsil tshuntirilgan. Shuningdek, turli tashkiliy muhitlarda iqtidorlarni samarali boshqarish strategiyalarining asosini tashkil etuvchi muhim tamoyillar hamda amaliyot yoritib berilgan.

"Iste'dodlarni boshqarish" atamasi "to'g'ri" kadrlarni aniqlash va ularni "to'g'ri" ish o'rinlariga joylashtirishdan iborat bo'lib, bu tashkilot maqsadlariga erishish uchun kerakli ko'nikmalarga ega shaxslarni aniqlash, jalb etish va rivojlantirish amaliyoti hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori darajadagi rahbarlik lavozimlarida iste'dodli shaxslarni yollash tashkilot muvaffaqiyati uchun juda muhimdir²¹. Bu jarayonni 4 bosqichga bo'lingan aylana shaklida tasvirlash mumkin: baholash, ta'lim, motivatsiya va tahlil

(1-rasm)²². Dastlab, to'g'ri shaxsni ishga olishga e'tibor qaratiladi, keyin esa xodimlarning imkoniyatlarini tushunish va maksimal darajada rivojlantirish uchun ko'nikmalarini oshirishga urg'u beriladi. Jarayon davomida motivatsiya va saqlab qolish strategiyalari amalga oshiriladi, bu esa xodimlarning o'ziga xosligini rivojlantirish va ularga tegishli his qilishni mustahkamlaydi. Nihoyat, so'nggi bosqichda kelajakdagi ko'nikmalar talablarini tahlil qilish va xodimlarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirish usullari baholanadi.

Bundan tashqari, "Employer Brand Model"²³ kuchli ish beruvchi brendining yuqori darajadagi talantlarni jalb qilish va saqlab qolishdagi

²¹ Miner, J. B. (1973). The management consulting firm as a source of high-level managerial talent. *Academy of Management Journal*, 16(2), 253-264.

²² Glen, C. (2006). "Key Skills Retention and Motivation: The War for Talent Still Rages and Retention is The High Ground", *Industrial and Commercial Training*, Vol. 38, No. 1, pp. 37-45.

²³ Gaddam and Soumya (2008) "Modeling Employer Branding Communication: The Softer Aspect of HR Marketing Management", *ICFAI Journal of Soft Skills*. Mar2008, Vol. 2 Issue 1, p45-55. 11p.

ahamiyatini ta'kidlaydi. Google, Facebook va Ernst & Young singari kompaniyalarda AI-ga asoslangan yollash vositalarini xodimlarni jalb qilish va sezilarli darajada foyda olish uchun muvaffaqiyatli qo'llanadi²⁴. Ish beruvchi brendi nafaqat yollashni osonlashtiradi, balki xodimlarning qoniqishini oshiradi, bu esa tashkilotning umumiy samaradorligini yaxshilaydi.



1-rasm. Iste'dodlarni boshqarish jarayoni²⁵

Boshqa bir model, AARRR Pirate Metrics²⁶, marketingda dastlab qo'llanilgan va iste'dodlarni boshqarish uchun moslashtirilgan. Bu model xodimlarni ichki mijoz sifatida qabul qilib, 5 bosqichdan iborat: xodimlarni jalb qilish, yollash, unumdorlikni oshirish, tavsiya qilish va saqlab qolish. Jalq qilish bosqichi samarali ish beruvchi brendi orqali malakali nomzodlarni jalb qilishga qaratilgan, yollash esa tanlov va ishga joylashishni anglatadi. Unumdorlikni oshirish xodimlarning o'sish va rivojlanish imkoniyatlari orqali samaradorligini maksimal darajada oshirishni anglatadi. Tavsiya qilish joriy xodimlarning ijobiy brend imijini yaratish uchun qo'llashni maqsad qiladi, saqlab qolish esa raqobatbardosh maosh, imtiyozlar va qo'llab-quvvatlovchi muhit orqali xodimlarning qoniqishini saqlashni nazarda tutadi.

Bunday turli nazariyalar orqali iste'dodlarni boshqarishning asosiy tushunchalari – *jalb qilish*, *rivojlantirish* va *ushlab qolish* – doimiy ravishda ta'kidlanadi va bu jarayonlarning samaradorligini baholashda asosiy o'lchov sifatida xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya va inson resurslarining axborot tizimlari. So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab kompaniyalar operatsiyalarida turli raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda va inson

²⁴ EY Global (2019), "How EY's AI journey created a major business impact", available at: https://www.ey.com/en_gl/alliances/how-ey-s-ai-journey-created-a-major-business-impact

²⁵ Glen, C. (2006). "Key Skills Retention and Motivation: The War for Talent Still Rages and Retention is The High Ground", *Industrial and Commercial Training*, Vol. 38, No. 1, pp. 37-45.

²⁶ AIHR (2021), "A New HR Talent Management Model", available at: https://www.digitalhrtech.com/new-hr-talent-management-model/?_ga=2.221443928.1919393496.1618643774-1579557018.1618058046

resurslarini boshqarish (HRM) ham bundan mustasno emas²⁷. Dastlab, ish bilan ta'minlashdan axborot tizimlari 1940-yillarda faqat ma'lumotlarni saqlash va ish haqi to'lash uchun foydalanilgan²⁸. HRIS 1980-yillarda HR bilan bog'liq ma'lumotlarni boshqarish uchun dasturiy ta'minot sifatida joriy etilgan. U nafaqat zarur funksiyalarni avtomatlashtirish, balki qoidalar, jarayonlar va xodimlar ma'lumotlarini ham birlashtiradi²⁹. Biroq, hozirgi texnologik o'zgarishlar davrida, inson resurslari axborot tizimlari (HRIS) endi barcha HR faoliyatlarini boshqarishda yordam beradi. Bunday raqamli o'zgarish operatsion jarayonlarni yaxshilash va inson kapitalini boshqarish samaradorligini oshirishda yordam beradi, bu esa tashkilotlarning qarorlar qabul qilish jarayonini yaxshilaydi³⁰. HRMning raqamlashtirilishi endilikda yangilik emas, ammo COVID-19 pandemiyasi uning qabul qilinishini jadallashtirdi, chunki kompaniyalar gibrid ishlash muhitlarida agil bo'lib, yuqori samaradorlikka erishishga intilmoqda. Bunday texnologiyalar, xodimlar va iste'dodlarga doir axborotlar analitikasi bilan ta'minlab, raqamlarga asoslangan "aqlli" qarorlar qabul qilish imkonini beradi va tashkilotlarga HR jarayonlarini dinamik ravishda boshqarishga yordam beradi.

HRISning bir nechta foydali tomonlari bor, jumladan aniqlikni kuchaytiradi, ma'lumotlarga tez kirish imkoniyatini yaratadi, resurslarni tejash va mijozlar mamnunligini oshirish imkonini beradi³¹. Biroq tizimni joriy etishda xodimlarning moslashuvi va tashkilotdagi o'zgarishga qarshilik muammolarini hal qilish zarur³². HRIS HR operatsiyalarini soddalashtirishi, samaradorlikni oshirishi va strategik iste'dodlarni boshqarishga e'tibor qaratish imkonini berishi isbotlangan³³. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, yuqori samarali xodimlarning profillarini tahlil qilish orqali yanada ma'lumotli iste'dodlarni jalb qilishga yordam beradi, bu esa tashkilotlarga mos nomzodlarni jalb qilish imkonini yaratadi^{34 35}. HRISning integratsiyasi HR analitikasi orqali strategik qarorlar

²⁷ Singh, G., Tiwari, P. and Garg, V. (2023). HRM Digitalisation: Exploring Success and Outcomes. The Adoption and Effect of Artificial Intelligence on Human Resources Management, Part B, 199–219. Available from <https://doi.org/10.1108/978-1-80455-662-720230012> [Accessed 6 April 2023].

²⁸ DeSanctis G. Human Resource Information Systems: A Current Assessment // MIS Quarterly. 1986. № 1 (10). C. 15.

²⁹ Lina, M.A. (2019). Human Resource Information System (HRIS): An Important Element of Modern Organization. Global Disclosure of Economics and Business, 8 (2), 61–66. Available from <https://doi.org/10.18034/gdeb.v8i2.98> [Accessed 2 March 2024].

³⁰ Samy, N. et al. (2023). HRIS Mediating Role the Relationship between TOE and Decision Making. Technology and Investment, 14 (01), 1–21. Available from <https://doi.org/10.4236/ti.2023.141001> [Accessed 11 March 2023].

³¹ Ngai, E.W.T. and Wat, F.K.T. (2006). Human resource information systems: a review and empirical analysis. Personnel Review, 35 (3), 297–314. Available from <https://doi.org/10.1108/00483480610656702>.

³² Kovach, K.A. et al. (2002). Administrative and Strategic Advantages of HRIS. Employment Relations Today, 29 (2), 43–48. Available from <https://doi.org/10.1002/ert.10039>.

³³ Batra, Tejal Singh, and Rasika Patil. 2023. "Impact of HRIS Strategy on HRIS Effectiveness." Ssrn.com. July 2023. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4565506.

³⁴ Harris, Jeanne G., Elizabeth Craig, and David A. Light. 2011. "Talent and Analytics: New Approaches, Higher ROI." Journal of Business Strategy 32 (6): 4–13. <https://doi.org/10.1108/02756661111180087>.

³⁵ Gafurov, K. 2019. "Uzbekistan's Digitalization of Human Resources Management System: Advantages and Prospects." Uzbekistan.org.ua. 2019. <https://uzbekistan.org.ua/en/news/7045-uzbekistan%E2%80%99s>

qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi va bu esa kompaniya muvaffaqiyatiga xizmat qiladi³⁶.

Raqamli vositalar, masalan, sun'iy intellekt (AI), iste'dodlarni boshqarishdagi roli ortishi bilan HRIS Alni integratsiya qilish orqali ishga olish jarayonlarini avtomatlashtirish, masalan, rezyume tekshirish, videointervyular, shaxsiy o'rganish yo'nalishlari, ish faoliyati tahlili va xodimlarning ishdan ketish xavfini aniqlash singari vazifalarni bajarish imkonini beradi³⁷. AI va HRISning integratsiyasi operatsion samaradorlikni oshiradi va xodimlar tajribasini shaxsiylashtiradi. Bundan tashqari, HRISning Agile HR amaliyotiga qo'shilishi tashkilotlar o'zgaruvchan ish muhitlariga tez moslashish va iste'dodlarni boshqarishning tezkor usullarini amalga oshirish imkonini beradi^{38 39}.

O'zbekistonda, mehnat ta'minoti va talabning sezilarli nomutanosibligi mavjud, hozirgi kunda mamlakatda muhandislar, moliya mutaxassislari singari maxsus sohalarda kadrlar yetishmaydi⁴⁰. HRISning qabul qilinishi bunday iste'dodlarni boshqarish muammolarini hal qilishga yordam berishi mumkin. O'zbekistonda raqamli transformatsiya yo'lida sezilarli yutuqlarga erishilgan, 2022-yilda 43-o'rinda bo'lib, bu ko'rsatkichni 37 pog'ona ko'tarilgan, HRISning joriy qilinishi nisbatan asta-sekinlik bilan olib borilmoqda, shu sababdan mamlakatda uning qabul qilinishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish zarurati mavjud.

Texnologik, tashkiliy va tashqi (TTT) omillari va uzoqni ko'zlash madaniy omilining ta'siri. Texnologik, tashkiliy va tashqi (TTT) omillar, ya'ni Technology, organisation and environment (TOE) Tornatzky va Fleischer⁴¹ tomonidan 1990-yilda taqdim etilgan bo'lib, bu model texnologiyalarni qabul qilishni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. COVID-19 pandemiyasi TTT omillarining ahamiyatini yanada kuchaytirib, ko'plab tashkilotlarning uzoq muddatli masofaviy ish yuritishga o'tilishi sababli, HRM amaliyotida raqamli texnologiyalarning integratsiyasini talab qila boshladi⁴². Texnologik, tashkiliy va tashqi omillar HRM amaliyotining samaradorligi, ayniqsa, iste'dodlarni boshqarish amaliyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Texnologik omillar hamma tashkilot bo'limlariga ta'sir qiladi va HR

digitalization-of-human-resources-management-system-advantages-and-prospects.html.

³⁶ Sharma, Anshu, and Jyotsna Bhatnagar. 2017. "Talent Analytics: A Strategic Tool for Talent Management Outcomes." *Indian Journal of Industrial Relations* 52 (3): 515–27. <https://www.jstor.org/stable/26536413>.

³⁷ Levenson, Alec. 2018. "Using Workforce Analytics to Improve Strategy Execution." *Human Resource Management* 57 (3): 685–700. <https://doi.org/10.1002/hrm.21850>.

³⁸ Rohit, Ashish Kumar, Mukesh Saini, and Maneesh Pawar. 2024. "Integration of Artificial Intelligence in Human Resource Information System." *International Journal of Innovative Research in Technology and Science* 12 (2): 177–83. <https://ijirts.org/index.php/ijirts/article/view/26>.

³⁹ Dedes, Matthew. 2024. "Agile HR Practices in 2024 - EmployeeConnect HRIS." *Employee Connect Australia*. January 8, 2024. <https://www.employeeconnect.com/blog/agile-hr-practices-in-2024/>.

⁴⁰ Amcham Uzbekistan (2015), "HR market of Uzbekistan", Available from: <https://amcham.uz/wpcontent/uploads/publication-2015-second.pdf>

⁴¹ Tornatzky L. G., Fleischer M., Chakrabarti A. K. *The Processes of Technological Innovation* / L. G. Tornatzky, M. Fleischer, A. K. Chakrabarti, Lexington, MA, Lexington Books: Free Press, 1990.

⁴² Jana, Bhaswati, and Tanuja Kaushik. "Application of technology-organization-environment model in HR analytics adoption." *Journal of Information and Optimization Sciences* 43, no. 6 (2022): 1387-1395.

bo'limi bundan mustasno emas⁴³. Bu omillar ikki o'lchovga bo'linadi: IT infratuzilmasi va IT kompetensiya.

1) *IT Infratuzilmasi*: Yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun tashkilotda yaxshi rivojlangan IT infratuzilmasi zarur. IT infratuzilmasi HRM amaliyotida yangi texnologiyalar qo'llanishini kuchaytiruvchi yoki to'xtatuvchi asosiy omildir.⁴⁴

2) *IT Kompetensiya*: Bu, korxonada maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter va IT texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini anglatadi. HRM kontekstida, IT kompetensiya HR xodimlarining HRIS tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik ko'nikmalarni bildiradi. Xodimlarning yuqori darajadagi IT kompetensiyasi kadrlar va texnologiyalarga bir vaqtning o'zida qilingan investitsiyalar orqali oshirilib, bu, o'z navbatida, HRIS tizimi natijalari yaxshilanishiga olib kelad⁴⁵.

1-gipoteza: Texnologik omillar iste'dodlarni boshqarish amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tashkiliy omillar ham HRM amaliyotlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega⁴⁶. Bunday omillar uchta o'lchovga bo'linadi: taxminiy murakkablik, top menejerlar qo'llab-quvvatlashi va taxminiy xarajatlar.

1) *Taxmin qilingan murakkablik*: yangi HRIS tizimini amalga oshirishda, taxmin qilingan murakkablik mazkur texnologiya joriy etilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga bu innovatsiyalarning o'zlashtirilishiga to'sqinlik qilishi va HR bo'limidagi qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

2) *Top menejerlar qo'llab-quvvatlashi* HRM amaliyotini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Avvalgi tadqiqotlar rahbariyat qo'llab-quvvatlashi HRM amaliyoti samaradorligi yaxshilashini ko'rsatdi⁴⁷. Masalan, HRM direktorining direktorlar kengashida bo'lishi, HRM amaliyotiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Natijada bu iste'dodlarni boshqarishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3) *Taxminiy xarajatlar*: Yangi tizim, texnologiya yoki yechimlarni joriy qilish uchun resurslar, ayniqsa moliyaviy resurslar talab qilinadi. Loyiha xarajatlari tahlili yangi tizimning joriy etilishi yoki rad etilish qaroriga ta'sir qiluvchi juda muhim omil hisoblanadi⁴⁸.

⁴³ Alam, Md Golam Rabiul, Abdul Kadar Muhammad Masum, Loo-See Beh, and Choong Seon Hong. "Critical factors influencing decision to adopt human resource information system (HRIS) in hospitals." *PloS one* 11, no. 8 (2016): e0160366.

⁴⁴ Ma, Li, and Maolin Ye. "The role of electronic human resource management in contemporary human resource management." *Open Journal of Social Sciences* 3, no. 04 (2015): 71.

⁴⁵ Mogoale, P., R. Kekwaletswe, and Aubrey Mongale. "Analysis of IT Capability Impact on Organizational Performance." *International Journal of Computer Trends and Technology* 69 (2021): 76-81.

⁴⁶ Reginato, Luciane, and Reinaldo Guerreiro. "Relationships between environment, culture, and management control systems." *International Journal of Organizational Analysis* 21, no. 2 (2013): 219-240.

⁴⁷ Reutzel, Christopher R., Carrie A. Belsito, and Jamie D. Collins. "Human resource management executive presence in top management." *International Journal of Organizational Analysis* 24, no. 5 (2016): 985-1001.

⁴⁸ Andjelic, Slavica, and Tamara Vesic. "The importance of financial analysis for business decision making." In *Book of proceedings from Sixth International Scientific Conference Employment, Education and Entrepreneurship*, pp. 9-25. 2017.

2-gipoteza: Tashkiliy omillar iste'dodlarni boshqarish amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi omillari korxonadan tashqari bo'lgan va biznes jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, masalan, bozor sharoiti va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashi ta'siri bo'lishi mumkin. Shu sababdan, raqobatchilar bosimi va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash yangi texnologiyalarni qabul qilishda yordam beradi yoki to'xtatadi⁴⁹.

1) *Raqobatchilar bosimi:* Raqobat bosimi yangi texnologiyalarni joriy qilish va kompaniyalarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Tashkilotlar har doim o'zaro raqobatlashadi, ayniqsa, iste'dodlarni ishga yollash, rivojlantirish va saqlash bo'yicha.

2) *Davlat qo'llab-quvvatlashi:* Hukumat siyosati, masalan, soliqlar, investitsiyalar va intellektual mulkni himoya qilish kabi omillar, texnologiyalarni joriy qilishga yordam beradi. Hukumatning kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashi va texnologiyani joriy qilishdagi roli juda yuqori⁵⁰.

3-gipoteza: Tashqi omillari iste'dodlarni boshqarish amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

HRIS mediatorning roli. HRIS tizimlari HRM amaliyotida muhim ahamiyatga ega, chunki ular tashkilot samaradorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi⁵¹. TTT omillari HRIS joriy etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi boshqa olimlar tomonidan ham ta'kidlab o'tilgan, HRIS esa o'z navbatida, TTT omillari va iste'dodlarni boshqarish amaliyoti o'rtasida bog'liqlikka mediator vazifasini bajaradi⁵².

4-gipoteza: HRIS joriy etish texnologik, tashkiliy va tashqi (TTT) omillar va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi empirik munosabatlarga vositachilik (mediator) ta'sirini ko'rsatadi.

Uzoqni ko'zlash madaniy omili. Madaniy omillar, ayniqsa, "uzoqni ko'zlash" omili iste'dodlarni boshqarish amaliyotiga ta'sir ko'rsatadi. Geert Hofstede⁵³ o'zining 1984-yilgi "Madaniyat oqibatlarini" asarida madaniyat va tashkilot dinamikasi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Hofstede tomonidan taklif qilingan nazariya quyidagi madaniy omillarning beshta o'lchovini o'z ichiga oladi: individualizm, erkaklarga xoslik, hukmronlik masofasi, noaniqlikdan qochish va uzoqni ko'zlash xususiyatlari. Uzoqni ko'zlash madaniyati sabr-toqat, an'analarga hurmat va tez erishiladigan mukofotlarga nisbatan kelajakdagi maqsadlarga yo'nalgan qadriyatlarini anglatadi⁵⁴. Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan, O'zbekiston,

⁴⁹ Soewarno, N., Bambang T., and Devitania P. "Competitive pressure and business performance in East Java Batik industry." *Journal of Asian Finance, Economics and Business* 7, no. 12 (2020): 329-336.

⁵⁰ Obialor, Donatus Chukwuemeka. "Effect of Government Regulations on New Businesses (A Case of Beverage Industry in Owerri Metropolis)." *Journal of Economics and Allied Research* 4, no. 3 (2020): 45-56.

⁵¹ Liu D., Darbandi M. Assessing the impact of cloud-based services on the talent management of employees // *Kybernetes*. 2021. № 6 (51).

⁵² Li, Min, Dingtao Zhao, and Yan Yu. "TOE drivers for cloud transformation: direct or trust-mediated?." *Asia Pacific Journal of Marketing and Logistics* 27, no. 2 (2015): 226-248.

⁵³ Hofstede G. *Culture's consequences: International Differences in Work-related Values* / G. Hofstede, Beverly Hills: Sage Publications, 1984.

⁵⁴ Insights, Hofstede. "Compare Countries—Hofstede Insights. 2023." (2023). [online] <https://www.hofstede->

Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonda aynan shu madaniy xususiyat o'xshash bo'lib, bu mamlakatlardagi insonlar e'tibori qisqa muddatli maqsadlarga nisbatan uzoq muddatli maqsadlarga qaratilgan⁵⁵.

5-gipoteza: Uzoqni ko'zlash madaniy omili texnologik omillar va iste'dodlarni boshqarish amaliyotlari o'rtasidagi munosabatda moderator bo'ladi.

6-gipoteza: Uzoqni ko'zlash madaniy omili tashqi omillar va iste'dodlarni boshqarish amaliyotlari o'rtasidagi munosabatda moderator bo'ladi.

7-gipoteza: Uzoqni ko'zlash madaniy omili tashkiliy omillar va iste'dodlarni boshqarish amaliyotlari o'rtasidagi munosabatda moderator bo'ladi.

Yangi tadqiqot uchun bo'shliq. Aksariyat tadqiqotlar HRIS qabul qilishning tashkilotning muvaffaqiyatiga ta'sirini o'rgangan bo'lsa-da, iste'dodlarni boshqarish natijalariga ta'sir juda kam o'rganilgan. Shu sababdan, bu tadqiqot HRIS joriy qilishning iste'dodlarni boshqarish amaliyotlariga ta'sirini o'rganishni maqsad qilgan^{56 57}. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston madaniy omillarini hisobga olib, uzoqni ko'zlash madaniy omili tashkilotlarda HRIS joriy qilinishiga qanday ta'sir qilishi hali yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun, bu tadqiqot, ayniqsa, bu hududning madaniy xususiyatlarini inobatga olib, HRIS joriy qilinishi iste'dodlarni boshqarish samaradorligiga ta'sirini o'rganadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Tadqiqotning iste'dodlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiliuvchi ekonometrik modeli va metodologiyasiga"** bag'ishlanadi. Bu bo'limda iste'dodlarni boshqarish amaliyotini shakllantiruvchi turli o'lchamlar va yo'nalishlarni o'rganuvchi keng qamrovli asos taklif etilgan. Unda ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun qo'llaniluvchi tadqiqot uslubiyoti batafsil bayon etilgan bo'lib, tashkilotlarda iste'dodlarni samarali boshqarishga turtki beruvchi muhim omillar yoritib berilgan.

Tadqiqot modeli va gipotezalar. Mazkur tadqiqotda texnologik, tashkiliy va tashqi (TTT) omillari mustaqil o'zgaruvchilar bo'lib, ular quyidagi o'lchovlardan iborat: "IT infratuzilmasi," "IT kompetentsiya," "Taxminiy murakkablik," "Taxminiy xarajatlar," "Top menejmentning qo'llab-quvvatlashi," "Raqobat bosimi" va "Hukumat qo'llab-quvvatlashi"⁵⁸. Bu

insights.com/country-comparison-tool?countries=kazakhstan [Accessed 3 Ju3. 2024].

⁵⁵ Nadirova, G. (2023). Cross-Cultural Interaction between Central Asia and South Korea. [online] Eurasian Research Institute (ERI). Available at: <https://www.eurasian-research.org/publication/cross-cultural-interaction-between-central-asia-and-south-korea/> [Accessed 3 Jun. 2024].

⁵⁶ ElNakib, Dalia Mohamed, Mohamed A. Ragheb, Rasha Abd ElAziz Youssef, and Abdel Nasser Ghanem. "The Effect of HRIS Adoption on Vodafone Egypt Firm's Performance." *Journal of Human Resource and Sustainability Studies* 9, no. 02 (2021): 173.

⁵⁷ Qaisar, Nasim. "Factors Affecting Extent of HRIS Adoption and its Impact on Organization's Performance: Moderating Role of HR Staff Expertise." PhD diss., Riphah International University, Islamabad, 2019.

⁵⁸ Alam MGR, Masum AKM, Beh L-S, Hong CS (2016) Critical Factors Influencing Decision to Adopt Human Resource Information System (HRIS) in Hospitals. *PLoS ONE* 11(8): e0160366. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0160366>

o'lovlar ilgari olib borilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan bo'lib, ularning tashkilotlarda HRIS qabul qilinishiga ta'sirini o'rganish maqsadida qo'llaniladi (2-rasm). HRIS qabul qilish nominal o'zgaruvchi sifatida modelda vositachi (mediator) vazifasini bajaradi. Turner (2003) instrumentidan foydalangan holda, tashkilotlar HRIS qabul qilish bosqichini aniqlash uchun so'rovga tortildi: "Joriy etgan" (Adopter), "Potentsial qabul qiluvchi" (Prospector) yoki "Sustkash" (Laggard). Bu instrument bir qator olimlar tadqiqotlarida texnologik innovatsiya omillarini o'rganishda qo'llanilgan^{59 60}.

Tadqiqotning tobe o'zgaruvchisi iste'dodlarni boshqarish samaradorligi bo'lib, u iste'dodlarni yollash, rivojlantirish va saqlab qolishni o'z ichiga oladi⁶¹. TTT omillarining iste'dodlarni boshqarish samaradorligiga ta'siri Liu va Darbandi (2021)⁶² tadqiqotiga asoslanadi.


Shuningdek, Geert Hofstedening "uzoqni muddatli orienttsiya" madaniy omili TTT omillari va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi munosabatda moderatorlik vazifasini bajaradi. Tadqiqotda HRIS joriy etilishining ushbu munosabatlardagi vositachilik vazifasi ham o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy yangiligi – texnologiya va tashkiliy omillarning talantlarni jalb qilish, rivojlantirish va saqlab qolish natijalariga ta'sirini baholashdir.

⁵⁹ Lertwongsatien, Chalerm Sak, and Nitaya Wongpinunwatana. "E-commerce adoption in Thailand: an empirical study of small and medium enterprises (SMEs)." *Journal of Global Information Technology Management* 6, no. 3 (2003): 67-83

⁶⁰ Alshamaila, Yazan Yassen. "An empirical investigation of factors affecting cloud computing adoption among SMEs in the North East of England." PhD diss., Newcastle University, 2013.

⁶¹ Gurusinghe, R. Navodya, Bhadra JH Arachchige, and Dushar Dayarathna. "Predictive HR analytics and talent management: a conceptual framework." *Journal of Management Analytics* 8, no. 2 (2021): 195-221.

⁶² Liu, Dan, and Mehdi Darbandi. "Assessing the Impact of Cloud-Based Services on the Talent Management of Employees." *Kybernetes*, June 8, 2021.



2-rasm. Tadqiqot modeli va gipotezalari

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mono-metod, ya'ni moqdoriy o'lchov usuli qo'llangan bo'lib, HRISni qabul qilinishi va uning iste'dodlarni boshqarishga ta'sirini baholash maqsadida tuzilgan so'rovnomadan foydalanilgan. Mavjud adabiyotlarni batafsil o'rganishdan so'ng, maqsadli tanlab olish yondashuvi orqali birlamchi miqdoriy ma'lumotlarni to'plash uchun tadqiqot modeli va unga mos keluvchi so'rovnoma yaratilgan⁶³.

So'rovnoma Alam va boshqalar (2016)⁶⁴, Bearden (2006)⁶⁵ va Oehley (2007)⁶⁶ singari olimlar olib borgan tadqiqotlarga asosan ishlab chiqilgan. So'rovnomada

5-darajali Likert shkalasiga asoslangan ko'p variantli tanlov va qisqa javoblar shaklida bo'lgan 25 asosiy savol va ba'zi qo'shimcha savollar berilgan. So'rovnoma O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan HR vakillari o'rtasida tarqatish uchun o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. So'rovnoma Tashkent Xalqaro Westminster Universitetining Etika Kengashi tomonidan tasdiqlangan (ro'yxat raqami RO/06-01-0074), va aniq tarjimini ta'minlash uchun qayta tarjima qilish usuli qo'llanilgan⁶⁷.

⁶³ Quaasar G. M. A. A. Determinants of the Adoption of Human Resources Information Systems in a Developing Country: An Empirical Study // The International Technology Management Review. 2017. № 3 (6). C. 82.

⁶⁴ Alam MGR, Masum AKM, Beh L-S, Hong CS (2016) Critical Factors Influencing Decision to Adopt Human Resource Information System (HRIS) in Hospitals. PLoS ONE 11(8): e0160366. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0160366>

⁶⁵ Bearden, W. O. "A Measure of Long-Term Orientation: Development and Validation." Journal of the Academy of Marketing Science 34, no. 3 (July 1, 2006): 456–67. <https://doi.org/10.1177/0092070306286706>.

⁶⁶ Oehley, Anne-Marguerite. "The Development and Evaluation of a Partial Talent Management Competency Model." scholar.sun.ac.za, December 1, 2007. <https://scholar.sun.ac.za/items/f892eae8-839a-480e-ae7f-d997ecb53634>

⁶⁷ Saunders, Mark, Philip Lewis, and Adrian Thornhill. "Research methods for business students eight edition." Qualitative Market Research: An International Journal (2019).

O'zbekistonda HRISni qabul qilgan tashkilotlarning aniq soni noma'lum bo'lgani uchun, ya'ni tadqiqot qatnashchilar soni va tanlanma hajmi boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan shunga o'xshash tadqiqotlar sonidan olingan. Masalan, Quaosar (2017)⁶⁸ va Alkhwalid va boshqalar (2022)⁶⁹ tadqiqotlarda mos ravishda taxminan 207 va 211 qatnashchilar ishtirok etgan. Shu sababdan tadqiqotda ham shu songa yaqin respondentlar qatnashgan. Ma'lumotlar 182 ta tashkilotdagi 213 HR mutaxassisi orasidan to'plandi. Bu miqdoriy ma'lumotlar yig'ish uslubi nisbatan arzon bo'lib, turli tadqiqotlarda keng qo'llaniladi⁷⁰. Avvaliga Google forms platformasidagi on-layn javoblar kam bo'ldi, shuning uchun HR tadbirlari, seminarlar va ish yarmarkalarida off-line qatnashish orqali 6 oy davomida yetarlicha ma'lumotlar yig'ilgan.

Ma'lumotlarni tahlil qilishda, oddiy chiziqli regressiya orqali TTT omillarining isted'dodlarni boshqarish natijalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri baholangan, beta qiymatlari va t-qiymatlaridan munosabatning aniqrog'ini baholash uchun foydalanilgan⁷¹. Tadqiqotda HRISni joriy qilish va iste'dodlarni boshqarish natijalari o'rtasidagi vositachilikni o'rganish uchun SmartPLS 4⁷² bilan strukturali kvadrat tenglamalarini modellashtirishdan (PLS-SEM) foydalanilgan. PLS-SEM was chosen for its capability to manage complex models that include categorical mediators, latent variables, and interaction terms while bypassing distributional assumptions⁷³. Uzoqni ko'zlash madaniy omili TTT omillari va isted'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi munosabatni moderator sifatida tahlil qilinganda, TTT omillarining faqatgina muhim ahamiyatga ega bo'lganlari bilan o'zaro ta'sirlar hisobga olingan. Umuman, tadqiqot O'zbekistondagi TTT omillarining HRIS qabul qilinishi va iste'dodlarni boshqarish natijalariga ta'sirini tushunishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari. *Respondentlarning demografiyasi.* O'zbekistondagi 182 ta turli tashkilotlarda ishlovchi 213 respondentdan olingan ma'lumotlar 1-jadvalda jamlangan. So'rovda qatnashgan respondentlar 58 % erkak va 42 % ayol. Ishtirokchilarning asosiy qismi 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lib, bu 49 %ni tashkil qiladi, respondentlarning 31 % 31-39 yosh oralig'ida. Ishtirokchilarning kasbiga kelsak, respondentlarning 18 %i HR yordamchisi, 49 %i HR menejeri, atigi 8 %i HR direktori va 24 %i mos ravishda boshqa

⁶⁸ Quaosar G. M. A. A. Determinants of the Adoption of Human Resources Information Systems in a Developing Country: An Empirical Study // *The International Technology Management Review*. 2017. № 3 (6). C. 82.

⁶⁹ Alkhwalid, A.F. et al. (2022). Investigating the antecedents of HRIS adoption in public sector organizations: integration of UTAUT and TTF. *International Journal of Organizational Analysis*. Available from <https://doi.org/10.1108/ijoa-04-2022-3228>

⁷⁰ Bal, Y., S. Bozkurt, and E. Ertemsir. "The importance of using human resources information systems (hris) and a research on determining the success of hris in International Conference Management Knowledge and learning." (2012).

⁷¹ Hair, Joe F., Christian M. Ringle, and Marko Sarstedt. 2011. "PLS-SEM: Indeed a Silver Bullet." *Journal of Marketing Theory and Practice* 19 (2): 139–52. <https://doi.org/10.2753/MTP1069-6679190202>.

⁷² Ringle, C. M., Wende, S., & Becker, J.-M. (2024). SmartPLS 4. SmartPLS GmbH.

⁷³ Hair, J. F., Hult, G. T. M., Ringle, C. M., & Sarstedt, M. (2019). *A primer on partial least squares structural equation modeling (PLS-SEM)*. Sage.


lavozimlarda ishlaydi. Respondentlarning aksariyati, ya'ni 56 % kamida bakalavr darajasiga, 28 % magistr darajasiga, shu bilan birga 14 % o'rta ta'limga ixtisoslashgan va faqat 1 % doktorlik darajasiga ega. 2 % qatnashuvchilar esa boshqa daraja turlarini, masalan, sertifikatlar, litsenziyalar va boshqa darajalarni ko'rsatib o'tganlar (1-jadval).

1-jadval

Respondentlarning demografiyasi

Ishtirokchilar jinsi	Soni	%da
Erkak	123	58%
Ayol	89	42%
Belgilamaslikni afzal ko'raman	1	0%
Jami	213	100%
Yosh oralig'i		
25 dan kichik	2	1%
25-30	105	49%
31-39	67	31%
40-49	34	16%
50-59	5	2%
Jami	213	100%
Lavozimi		
HR Assistenti	39	18%
HR Menejeri	104	49%
HR Direktori	18	8%
Boshqa	52	24%
Jami	213	100%
Ma'lumoti		
O'rta maxsus	29	14%
Bakalavr	119	56%
Magistr	59	28%
PhD	2	1%
Boshqa	4	2%
Jami	213	100%

3-rasmda ko'rsatilgan so'rovnoma ishtirokchilari faoliyat yuritayotgan tashkilotlardagi xodimlar soni quyidagicha: kompaniyalarning 30 % ida 500 dan ortiq xodim ishlaydi, 27 % ida esa 100 dan 500 gacha xodimlar ishlaydi.



3-rasm. Ishtirokchilar faoliyat yuritayotgan tashkilotlarda xodimlar soni

2-jadvalda turli sohalarda HRIS tizimini joriy etish darajasi ko'rsatilgan. Ishlab chiqarish sanoati HRIS tizimini joriy etishda yetakchilik qilmoqda, ayni paytda "istiqbolchilar" va "orqada qolganlar" orasida ham eng yuqori ko'rsatkichlarga ega.

2-jadval

Tarmoqlar bo'yicha HRIS tizimini joriy etilish darajasi

Sanoat/ HRIS joriy etilganlik darajasi	Joriy etganlar		Rejalashtirganlar		Sustkashlar		Jami
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	
Qurilish	0	0	2	1	6	3	8
Konsalting	3	1	8	4	6	3	17
Ta'lim	4	2	12	6	2	1	18
Moliya va bank ishi	7	3	16	8	2	1	25
Mehmonxonalar va HoReCa	3	1	9	4	4	2	16
Axborot texnologiyalar va telekommunikatsiyalar	5	2	14	7	7	3	26
Ishlab chiqarish	11	5	16	8	8	4	35
Marketing, OAV va HR agentliklari	1	0	3	1	5	2	9
Tibbiyot va farmatsevtika tashkilotlari	0	0	7	3	1	0	8
NNT, NNT va davlat tashkilotlari	6	3	3	1	2	1	11
Chakana savdo, tarqatish va logistika	7	3	10	5	8	4	25
Boshqa sohalarda	2	1	12	6	1	0	15
Jami	49	23	112	53	52	24	213

Shu bilan birga, moliya va bank, shuningdek, IT va telekommunikatsiya sohalari tez orada bunday texnologiyani qabul qilishni rejalashtirgan eng yaxshi "prospektorlar" qatoriga kiradi. Aytish joizki, so'rovnomada qatnashgan Qurilish, Tibbiyot va Farmatsevtika sohalaridagi tashkilotlarda hozirgi kunda bu tizimni joriy etgan korxonalar umuman mavjud emas. 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'rovnomada ishtirok etgan tashkilotlarning 23 %i HRISni hozirda joriy etgan, 52,6 %i HRISni joriy qilishni rejalashtirish bosqichida, 24,4 %i ushbu HR texnologiyalarini o'zlashtirishda sustkashlik qilayotgani kuzatiladi. Bu mahalliy bozorning bu sohada hali yetuk emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot haqiqiyliги va ishonchliligi. Tadqiqotning strukturali modeldagi muhim munosabatlarni tekshirishdan avval, uning o'lchovlari

haqiqiyli va ishonchliligi baholanishi kerak⁷⁴. 3-jadvalga ko'ra, Kaiser-Meyer-Olkin (KMO) testi 0,793 ko'rsatkichi 213 respondentdan iborat tanlov tahlil uchun mos ekanligini ko'rsatdi. Umumiy model uchun Cronbach alfasini 0,844 ni tashkil etdi, bu tuzilgan modelning yetarlicha ishonchliligini ko'rsatadi. Tadqiqot modelning kompozit ishonchliligi (composite reliability, CR=0,973) va o'rtacha dispersiya (average variance extracted, AVE=0,503) ko'rsatkichlari mos ravishda 0,7 va 0,5 minimal talab qilingan qiymatdan ko'proq.⁷⁵ Bu esa butun modelning ishonchliligi va haqiqiyligini tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval

Tadqiqotdagi tuzilma modelining haqiqiyli va ishonchliligini tekshirish

Ishni qayta ishlash bo'yicha xulosa	
Yaroqli holatlar	213
Istisno qilingan holatlar ^a	0
Jami holatlar	213
Ishonchlilik statistikasi	
Chronbach's alfa	0,844
Elementlar soni	38
KMO va Bartlett's Test	
Kaiser-Meyer-Olkin Measure of Sampling Adequacy	0,793
Bartlett's Test of Sphericity	
Approx. Chi-Square	3968,231
df	703
Sig.	0

a. Jarayondagi barcha o'zgaruvchilar asosida ro'yxat bo'yicha o'chirish.

Ishonchlilikni baholash uchun so'rovnomaning shkalalari ichki muvofiqligini baholashda ham Cronbach's Alpha usulidan foydalanildi (4-jadval). Aksariyat o'lchovlar alfa qiymatlari 0,7 ning maqbul chegarasidan oshgan bo'lsa-da, "IT kompetentisiya", "Raqobat bosimi" va "Hukumat qullab quvvatlashi" singari ba'zi o'lchovlar 0,572 dan 0,696 gacha bo'lgan pastroq qiymatlar ko'rsatdi, shunday bo'lsa-da ular Hinton et al. (2004)⁷⁶ ma'lumotlariga ko'ra 0.5 dan yuqoriligi sababli maqbul hisoblanadi.

Har bir shkalaning ishonchliligi va asosiligi uchun ajratib olingan o'rtacha dispersiya (AVE) va kompozit ishonchlilik (CR) hisoblandi, bu ko'rsatkichlar esa umumiy model uchun mos ravishda 0,503 va 0,973 ni

⁷⁴ Fornell, Claes, and David F. Larcker. "Evaluating structural equation models with unobservable variables and measurement error". Journal of marketing research 18, no. 1 (1981): 39-50.

⁷⁵ Hair, Joseph F., William C. Black, Barry J. Babin, Rolph E. Anderson, and Ronald L. Tatham. "Multivariate data analysis 6th Edition." (2006).

⁷⁶ Hinton, Perry, Isabella McMurray, and Charlotte Brownlow. 2004. SPSS Explained. 1st Edition. London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203642597>.

tashkil etdi, bularning ikkalasi ham minimal talab etilgan qiymatlardan yuqori⁷⁷. Individual shkalalarning ba'zilari AVE 0,5 dan past bo'lgan bo'lsa-da, barcha o'lchovlar uchun CR qiymatlari 0,7 dan yuqori bo'lganligi sababli, barcha o'lchovlar adekvat ekanligini ko'rsatgan va modelning haqiqiyli va ishonchliligini tasdiqlagan.

4-jadval

Shkalalarning ishonchlilik statistikasi

Shkalalar	Cronbach's Alpha	Standartlashtirilgan elementlar asosida Cronbach's Alpha	Elementlar soni
IT kompetentsiya	0,583	0,608	3
IT infratuzilmasi	0,737	0,738	4
Murakkablik	0,739	0,740	4
Top menejment qo'llashi	0,862	0,862	3
Taxminiy xarajatlar	0,863	0,864	3
Raqobatchi bosimi	0,572	0,571	3
Hukumat qo'llashi	0,696	0,697	2
Uzoqni ko'zlash	0,689	0,702	3
Iqtidorlarni ishga olish	0,813	0,817	4
Iqtidorlarni rivojlantirish	0,878	0,885	4
Iqtidorlarni ushlab qolish	0,864	0,874	4

Gipotezalarni tekshirish

1. TTT omillarining iste'dodlarni boshqarish samaradorligi bilan bevosita bog'liqligi.

1-gepotiza: Iste'dodlarni boshqarish natijalari bilan ijobiy va sezilarli darajada bog'liq texnologik omillar. Har ikkala komponentning t qiymatlari talab qilinadigan minimal qiymatdan yuqori (IT kompetentsiya t qiymatlari =3,384 va IT infratuzilmasi t qiymatlari =4,897). "IT kompetentsiya" va "IT infratuzilmasi" texnologik omillarining shkalalari statistik ahamiyatga ega bo'lib, p qiymatlari 0,000 va 0,001 ga teng, bu 0,05 dan past (5-jadval). Demak, bu 1-gipoteza tasdiqlanganligini ko'rsatadi.

5-jadval

Regressiya tahlili: iste'dodlarni boshqarish samaradorligiga TTT omillarining ta'siri

Koeffitsiyentlar^a

Model	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlashtirilgan koeffitsiyentlar	t	Sig.
	B	Std. Error			
(Constant)	1,926	0,444		4,342	0,000

⁷⁷ Hair, Joseph F., William C. Black, Barry J. Babin, Rolph E. Anderson, and Ronald L. Tatham. "Multivariate data analysis 6th Edition." (2006).

Texnologik	IT kompetensiya	0,217	0,064	0,228	3,384	0,001
	IT infratuzilmasi	0,344	0,070	0,355	4,897	0,000
Tashkiliy	Taxminiy murakkablik	- 0,090	0,052	-0,103	- 1,724	0,086
	Top menejment qo'llab - quvvatlashi	0,109	0,050	0,135	2,195	0,029
	Taxminiy xarajatlar	0,015	0,047	0,019	0,318	0,751
Tashqi	Raqobatchilar bosimi	0,091	0,053	0,104	1,716	0,088
	Davlat qo'llab-quvvatlashi	0,053	0,043	0,072	1,224	0,222
Nazorat o'zgaruvchilari	Jinsi	- 0,131	0,099	-0,079	- 1,321	0,188
	Yoshi	- 0,096	0,057	-0,101	- 1,700	0,091
	Ma'lumoti	- 0,035	0,063	-0,035	- 0,559	0,577
	Lavozimi	0,014	0,056	0,015	0,244	0,808
	Sanoat tarmog'i	0,013	0,017	0,044	0,761	0,448
	Xodimlar soni	- 0,101	0,037	-0,160	- 2,717	0,007

a. Tobe o'zgaruvchi: Iste'dodlarni boshqarish

2-gepotiza: Faqat bitta tashkiliy omil iste'dodlarni boshqarish natijalari bilan ijobiy munosabatga ega. Uchta tashkiliy tuzilmadan faqat "Top menejment qo'llab-quvvatlashi" statistik ahamiyatga ega (p qiymati=0,029), uning t qiymati esa 2,195 ni tashkil etadi, bu esa 95 % ishonch darajasini ta'minlaydi (5-jadval). Shu sababli, *2-gipoteza* qisman tasdiqlangan.

3-gepotiza: Tashqi omillarining hech biri iste'dodlarni boshqarish natijalariga sezilarli darajada bog'liq emas. Bu statistik ma'lumotlar bilan yana bir bor tasdiqlandi, "Raqobat bosimi" va "Davlat qo'llab-quvvatlashi" ning p qiymatlari 0,05 dan yuqori, t qiymatlari esa 1,96 dan past (5-jadval). Shu sababli, *3-gipoteza* tasdiqlanmagan.

Bundan tashqari, 5-jadvalda TOE omillari va TMO o'rtasidagi munosabatga ta'sir ko'rsatuvchi nazorat o'zgaruvchilari, jumladan respondentlarning demografik xususiyatlari (jinsi, yoshi, ma'lumoti, lavozimi), tashkilot hajmi ("Xodimlar" soni bo'yicha) va u faoliyat yuritayotgan "Sanoat" turi ko'rsatilgan. Bu holatda respondentlarning demografik xususiyatlari hamda "Sanoat" turi statistik ahamiyatga ega emas. Biroq, "Xodimlar" sonining p -qiymati 0,007 ga teng bo'lib, bu statistik jihatdan ahamiyatli va -0,160 ga teng manfiy beta ko'rsatkichiga ega. Demak, xodimlar soni va TMO teskari proporsional bo'lib, xodimlar soni ortishi iste'dodlarni boshqarish natijalarining pasayishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Iste'dodlarni boshqarish samaradorligi tenglamalari (Formula 1 va 2):

$$\hat{y} = b_0 + b_1 \text{ITCap} + b_2 \text{ITInf} + b_3 \text{TMS} - b_4 \text{Emp} + e \quad (1)$$

Iste'dodlarni boshqarish samaradorligi = 1.926 + 0.228 · ITCap + 0.355 · ITInf

$$+ 0.135 \cdot \text{TopManSup} - 0.160 \text{EmpNum} + e,$$

(2)

Bu yerda: ITCap – IT salohiyati; ITInf – IT infratuzilmasi, TopManSup – Top menejment qo'llab-quvvatlash, EmpNum – korxonada xodimlar soni

1. HRIS joriy etish vositachiligi (mediation) tahlili

4-gipoteza: HRIS joriy etish texnologik, tashkiliy va tashqi (TTT) omillar va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi o'rtasidagi empirik munosabatlarga vositachilik (mediator) ta'sirini ko'rsatadi.

6-jadvalda iste'dodlarni boshqarish natijalari bilan bir qator bog'liqliklar tahlili ko'rsatilgan. Natijalarni talqin qilishni soddalashtirish uchun jadvalda faqat statistik ahamiyatli omillar keltirilgan.

Bevosita ta'sir: 6-jadvalda keltirilgan natijalar HRISni joriy qilish modellarining iste'dodlarni boshqarish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jadvalda HRIS "Joriy qiluvchilar" ($\beta = 1,89$, $p < 0,001$) va "Rejalashtirganlar" ($\beta = 1,30$, $p < 0,001$) "Sustkash"larga nisbatan iste'dodlarni boshqarishda yuqori va statistik ahamiyatga ega ijobiy bog'liqlik mavjudligi ko'rsatilgan. Bu HRISni joriy etgan tashkilotlar iste'dodlarni boshqarishda sezilarli darajada yaxshilangan natijalarni kuzatishlari haqidagi bayonotga asos bo'ladi.

6-jadval

Bevosita va bilvosita ta'sir koeffitsiyentlari va iste'dodlarni boshqarishda HRIS joriy qilishning va TTT omillarining ahamiyati

Ta'sir yo'nalishi	Koeffitsiyen t	t-value	p-value	95 % CI (2.5 %, 97.5 %)
Joriy Etganlar Dummy → Iste'dodlarni boshqarish	1.89	13.19	<0.001	[1.58, 2.14]
Rejalashtirganlar Dummy → Iste'dodlarni boshqarish	1.30	11.64	<0.001	[1.06, 1.50]
IT Infratuzilmasi → Iste'dodlarni boshqarish	0.14	2.48	0.013	[0.04, 0.25]
IT Salohiyat → Iste'dodlarni boshqarish	0.10	1.87	0.061	[0.236, 0.241]
Top Menejment Qollashi → Talent Management	0.11	2.19	0.029	[0.02, 0.22]
Davlat Qonunchiligi → Joriy Etganlar Dummy	0.10	3.51	<0.001	[0.05, 0.16]

Davlat Qonunchiligi → Rejalashtirganlar Dummy	-0.09	2.48	0.013	[-0.16, -0.02]
IT Infratuzilmasi → Joriy Etganlar Dummy	0.07	2.40	0.016	[0.01, 0.13]

Izoh: Faqat ahamiyatli omillar ta'siri keltirilgan.

Bundan tashqari, tahlilga ko'ra, IT infratuzilmasi ($\beta = 0,14$, $p < 0,05$) va yuqori top menejment qo'llab-quvvatlash ($\beta = 0,11$, $p < 0,05$) HRIS qabul qilinishiga nisbatan kamroq ta'sir ko'rsatsa-da, iste'dodlarni boshqarish natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, IT salohiyati ($\beta = 0,10$, $p = 0,061$) bunday mediatsiya tahlilida cheklangan ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi, bu esa uning iste'dodlarni boshqarish natijalarini shakllantirishdagi cheklangan, ammo potensial ahamiyatli vazifasini ko'rsatadi.

Bilvosita ta'sir: 6-jadvalga ko'ra, TOEning o'ziga xos omillari, xususan, IT infratuzilmasi ($\beta = 0,07$, $p = 0,016$) va davlat qonunchiligi ($\beta = 0,10$, $p < 0,001$) ushbu omillarning Joriy Etganlar Dummy bilan sezilarli bog'liqligi tufayli HRIS qabul qilish ehtimolini oshirishda muhim o'ringa ega. HRIS qabul qilinishi natijasida yuzaga kelgan bilvosita ta'sir sezilarli bo'lib, bu nolni istisno qiluvchi 95 % ishonch oralig'i bilan ko'rsatilgan va shu bilan qisman vositachilik mavjudligini tasdiqlaydi⁷⁸.

Umumiy ta'sir: 7-jadvalda keltirilgan umumiy ta'sirda davlat tomonidan tartibga solishning iste'dodlarni boshqarish natijalariga ta'siri bo'yicha qiziqarli dinamika ko'rsatilgan. Dastlab bevosita ta'sir bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatsiz deb topilgan ushbu omil, HRIS joriy qilish nuqtai nazaridan bilvosita baholanganda ahamiyat kasb etadi. Aksincha, top menejment, ya'ni yuqori rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi dastlab iste'dodlarni boshqarishga bevosita va sezilarli ta'sir ko'rsatsa-da, HRIS joriy etilgandan so'ng uning ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Bundan tashqari, HRIS qabul qilinishi tufayli IT infratuzilmasi va IT salohiyati holatlarida koeffitsiyentlarning biroz pasayishini kuzatish mumkin. Binobarin, HRIS vositachi (mediator) vazofasi tasdiqlandi. Shunga ko'ra, 4-gipoteza qisman tasdiqlanadi.

7-jadval

Statistik ahamiyatli omillarning bevosita va bilvosita ta'siri va HRISni joriy qilishning umumiy ta'siri

Ta'sir yo'nalishi	Bevosita ta'sir	Bilvosita ta'sir (Adopt Dummy)	Umumiy ta'sir	Statistik ahamiyatlilik
IT Infratuzilmasi → Iste'dodlarni	0.135	0.131	0.266	Ahamiyatli

⁷⁸ Preacher, K. J., & Hayes, A. F. (2008). Asymptotic and resampling strategies for assessing and comparing indirect effects in multiple mediator models. *Behavior Research Methods*, 40(3), 879-891.

boshqarish				
Davlat Qonunchiligi → Iste'dodlarni boshqarish	Ahamiyatsiz	0.193	0.193	Ahamiyatli (bilvosita ta'sir)
IT Salohiyat → Iste'dodlarni boshqarish	0.095	0.089	0.184	Kam ahamiyatli
Top Menejment Q'ollashi → Iste'dodlarni boshqarish	0.110	Ahamiyatsiz	0.110	Ahamiyatli

Izoh: Faqat ahamiyatli omillar ta'siri keltirilgan.

II. Uzoqni ko'zlash madaniy omilining moderator rolini tahlil qilish.
 Avvalgi gipotezalarni tekshirish natijasida TTT omillari orasida "IT kompetentsiya", "IT infratuzilmasi" va "Top menejment qo'llab-quvvatlash" shkalalari statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. 8-jadvalda avval aniqlangan statistik muhim TTT omillarining "uzoqni ko'zlash" madaniy omili bilan o'zaro aloqasi iqtidorlarni boshqarish samaradorligiga regressiya tahlil natijasida qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

TTT omillari va iqtidorlarni boshqarish natijalari orasidagi bog'liqlikka uzoq muddatli yo'naltirish omilining mo'tadillashtiruvchi (moderation) ta'siri

Koeffitsiyentlar^a

Model	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlash-tirilgan koeffitsiyent-lar	t	Sig.
	B	Std. Error	Beta		
(Doimiy)	2,268	0,203		11,167	0
ModITcapLTO	0,034	0,014	0,195	2,383	0,018
ModITInfLTO	0,065	0,016	0,355	4,144	0
ModITopMgmtLTO	0,014	0,01	0,092	1,368	0,173

a. Tobe o'zgaruvch: TalMan

5-gepotiza: uzoqni ko'zlash omilining "IT kompetentsiya" va "IT infratuzilmasi" bilan o'zaro ta'siri ModITcapLTO va ModITInfLTO, mos ravishda 0,018 va 0,000 statistik ahamiyatli p qiymatlariga ega ekanligi aniqlangan. *4-gepotiza* tasdiqlanadi.

6-gepotiza: Biroq uzoqni ko'zlash omilining "Top menejement qo'llab-quvvatlashi" bilan o'zaro ta'siri ModITopMgmtLTO statistik ahamiyatsiz p-qiymatiga ega 0,173 va bu 0,005 dan yuqori. Shu sababdan, *5-gepotiza* tasdiqlanmagan.

7-gepotiza: Tashqi omillarining tarkibiy qismlari avval aniqlangan ahamiyatsizligi sababli hisobga olinmagan. Shunday qilib, *6-gepotiza* tasdiqlanmagan.

Demak, uzoqni ko'zlash madaniy omili faqat texnologik omillar va iste'dodlarni boshqarish samaradorligi orasidagi bog'liqlikka moderator ta'sirini ko'rsatadi, ammo tashkiliy va tashqi omillarga ta'sir qilmaydi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi "**Tadqiqot natijalarining boshqaruvda amaliy tatbig'i**" deb nomlangan. Tadqiqot natijalari sanoat uchun bir qator amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, rahbarlar iste'dodlarni boshqarish amaliyotini shakllantirishda turli TTT omillari muhimligini tushunishlari mumkin. Shu sababli, ular IT infratuzilmasini va xodimlarining IT kompetentsiyasini rivojlantirishlari lozim. Shuningdek, ular o'z tashkilotlarida iste'dodlarni boshqarish amaliyotini joriy etish uchun rahbariyat qo'llab-quvvatlashini ta'minlashlari kerak. Ikkinchidan, natijalarimiz HRIS tizimini joriy etishda ko'plab omillarning ahamiyatini ko'rsatadi. Rahbarlar ushbu omillarga e'tibor qaratib, HRIS tizimini muvaffaqiyatli joriy etishlari va iste'dodlarni samarali boshqarib, saqlab qolishlari mumkin, bu esa tashkilot samaradorligi va unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi⁷⁹⁸⁰. Nihoyat, uzoqni ko'zlash madaniy omili

⁷⁹ Arefin, Abu Hena Mohammad Manzurul, and Sajjad Hosain. "The role of human resource information system on organizational performance: Evidence from Bangladeshi pharmaceutical industry." *European Journal of Applied Business Management* 5, no. 1 (2019).

bilan bog'liq natijalarimiz ayniqsa xalqaro tashkilotlar uchun juda manfaatlidir. Madaniy kontekstlarni tushunish HRIS va iste'dodlarni boshqarish amaliyotini qabul qilishni osonlashtirishi mumkin. Agar tashkilot o'z mamlakatidan farqli madaniy muhitda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, rahbarlar mahalliy sharoitga moslashishlari kerak. HRISni joriy etishda madaniy omillarning bunday foydali o'rni allaqachon tasdiqlangan⁸¹.

Inson resurslari axborot tizimini (HRIS) joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi. Tadqiqot mobaynida O'zbekistonda 2025-2030 yillarda HRIS joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqarilgan (4-rasm).


1-bosqich: Ehtiyojlarni baholash – HRISni avtomatlashtirish uchun mos keluvchi takrorlanuvchi vazifalarni aniqlash uchun ehtiyojlarni baholash. Xodimlar sonini hisobga olgan holda, tashkilot talablari asosida tizimga ehtiyojni aniqlash.

2-bosqich: Manfaaddor tomonlar bilan maslahatlashish – HRISni amalga oshirishning afzalliklari, muammolari va ehtiyojlarini muhokama qilish uchun HR, IT, menejment va xodimlarni jalb qilish.

3-bosqich: Resurslarni baholash – zarur resurslarni (kompyuter, dasturiy ta'minot, ishchi kuchi) baholash va mavjud IT infratuzilmasini muvofiqligini tekshirish. HRIS joriy etishning hamma bosqichlari uchun o'quv ehtiyojlarini va byudjetni aniqlash.

⁸⁰ Normalini, Kassim, T. Ramayah, and Sherah Kurnia. "Antecedents and outcomes of human resource information system (HRIS) use." *International Journal of Productivity and Performance Management* 61, no. 6 (2012): 603-623.

⁸¹ Panayotopoulou, Leda, Eleanna Galanaki, and Nancy Papalexandris. "Adoption of electronic systems in HRM: Is national background of the firm relevant?." *New Technology, Work and Employment* 25, no. 3 (2010): 253-269.



4-rasm: O'zbekistonda 2025-2030-yillarda inson resurslarining axborot tizimini (HRIS) joriy etish yo'l xaritasi

4-bosqich: Tizim talabnomasi Tizim talabnomasi – Manfaaddor tomonlar fikrlarini birlashtirgan holda aniq ehtiyojlar va talablarni ifodalovchi axborot tizimi talabnomasini (request for proposal, RFP) yaratish.

5-bosqich: HRIS takliflarini taqqoslash – turli kompaniyalarning HRIS takliflarini tizimlarning ma'lumotlarni saqlash, xavfsizlik, integratsiya va xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlarini taqqoslash va tizimning uzoq muddatli ta'siri doirasida rentabellikni hisoblash.

6-bosqich: Demo versiyasini sinab ko'rish – foydalanuvchilar taassuroti va funktsionalligini obyektiv baholash maqsadida HRIS Demo dasturlari sinoviga xodimlarni jalb qilish.

7-bosqich: HRISni joriy etish – Tizimning muvaffaqiyatli integratsiya uchun foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda tizimni amalga oshirishni puxta rejalashtirib, ma'lumotlarni ko'chirish, xodimlarni o'qitish va o'rnatilgan tizimni sinovdan o'tkazish. *8-bosqich: Uzlaksiz takomillashtirish* – HRIS faoliyatini muntazam ravishda baholash va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini yig'ib borish hamda doimiy takomillashtirishni amalga oshirish va soha tendensiyalaridan xabardor bo'lish.

Inson resurslarining axborot tizimlarini amaliyotga joriy etish amaliy tatbig'i. HRISni joriy etish tashkilotlar uchun bir qator afzalliklar, jumladan, xarajatlarni kamaytirish, ish unumdorligini va samaradorlikni oshirishni

ta'minlaydi. Qayta-qayta takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish va HR jarayonlarini tartibga solish orqali HRIS ma'muriy yuklamani kamaytiradi va qaror qabul qilishni yaxshilaydi, shu bilan birga tashkiliy samaradorlikni oshiradi^{82,83}. Shuningdek, bu tizim xodimlar ma'lumotlariga o'z vaqtida kirishni ta'minlaydi va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, HRIS malakali kadrlar bo'shlig'ini aniqlash, iqtidorlar bazasini boshqarish va nomzodlarni kuzatish vazifalarini avtomatlashtirish orqali ishga qabul qilish jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi⁸⁴. HRIS integratsiyasi ish jarayonlarini tartibga solish va qaror qabul qilishni takomillashtirish orqali iste'dodlarni boshqarishni optimallashtiradi. Bu jarayon ehtiyojlarni tahlil qilish, tizimni tanlash, o'qitish va texnik xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi⁸⁵.

Biroq, HRISni amalga oshirishda qiyinchiliklar hali ham mavjud. Masalan, bulutga asoslangan HRIS platformalarida ma'lumotlar xavfsizligi masalasi, ma'lumotlarni yo'qotish xavfi va maxfiylik bilan bog'liq masalalar jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi^{86,87}. Bundan tashqari, tashkilotlar xodimlarni tayyorlash, o'zgarishlarni boshqarish va dastlabki xarajatlarni qoplashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin^{88 89}. HRIS tizimlari hali ham zarur tahliliy ko'nikmalarga ega bo'lgan HR mutaxassislarining yetishmasligi tufayli ilg'or tahliliy vazifalar uchun emas, balki ma'muriy maqsadlarda qo'llaniladi⁹⁰. Shuningdek, tizim integratsiyasi va ma'lumotlar migratsiyasining murakkabligi muammosi mavjud⁹¹. Bunday qiyinchiliklarga qaramay, HRIS integratsiyasi iste'dodlarni boshqarish va tashkiliy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Iste'dodlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar. Tashkilot muvaffaqiyati uchun samarali iste'dodlarni boshqarish muhim ahamiyatga ega va iste'dod siyosatini strategiya bilan muvofiqlashtirish zarur. Bunga erishish uchun tashkilotlarda birinchi navbatda asosiy pozitsiyalarni aniqlash va malakali iste'dodlarni to'ldirish va saqlab qolish strategiyalarini

⁸² Bondarouk, Tanya, et al. "Electronic HRM: Four Decades of Research on Adoption and Consequences". *The International Journal of Human Resource Management*, vol. 28, no. 1, 6 Nov. 2017, pp. 98–131, <https://doi.org/10.1080/09585192.2016.1245672>.

⁸³ Marler, Janet H., and John W. Boudreau. "An Evidence-Based Review of HR Analytics." *The International Journal of Human Resource Management*, vol. 28, no. 1, 11 Nov. 2017, pp. 3–26, doi.org/10.1080/09585192.2016.1244699, <https://doi.org/10.1080/09585192.2016.1244699>.

⁸⁴ Midiwo, Janet. 2016. "Influence of Human Resource Information Systems on the Performance in Kenyan Public Universities." *Ir.jkuat.ac.ke*. June 20, 2016. <http://ir.jkuat.ac.ke/handle/123456789/2125>.

⁸⁵ Panjaitan, E.H.H. (2023). *Implementing Human Resource Information System (HRIS) for Efficient Human Resource Management*. Available from

⁸⁶ KPMG. *Moving to the Cloud -Key Considerations Key Risk Considerations for Decision Makers*. Feb. 2016.

⁸⁷ Subashini, S., and V. Kavitha. "A Survey on Security Issues in Service Delivery Models of Cloud Computing." *Journal of Network and Computer Applications*, vol. 34, no. 1, Jan. 2011, pp. 1–11, <https://doi.org/10.1016/j.jnca.2010.07.006>

⁸⁸ Kumar Behera, M. (2016). *Emerging Issues and Challenges of HRIS: A Review*. *International Journal of Economics and Management Studies*, 3 (5), 91–95. Available from <https://doi.org/10.14445/23939125/ijems-v3i5p114>.

⁸⁹ Ahmad, A. (2022). *Challenges of Implementing HRIS in an Organization*. *resourceinn.com*. Available from <https://resourceinn.com/challenges-of-implementing-hris-in-an-organization/> [Accessed 3 March 2024]

⁹⁰ Kremer, K. (2018). *HR analytics and its moderating factors*. *Vezetéstudomány / Budapest Management Review*, 49(11), pp.62–68. doi: <https://doi.org/10.14267/veztud.2018.11.07>.

⁹¹ Marler, Janet H., and John W. Boudreau. "An Evidence-Based Review of HR Analytics." *The International Journal of Human Resource Management*, vol. 28, no. 1, 11 Nov. 2017, pp. 3–26,

ishlab chiqish kerak⁹². Menejerlar korporativ va iste'dod strategiyalari o'zaro mos kelishini, iste'dod ehtiyojlari tahlil qilinishi va resurslar samarali boshqarilishini ta'minlashlari kerak. Shu nuqtayi nazardan, yuqori malakali ichki iste'dodlar zaxiralarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtidorlarni boshqarish tashkilotdagi iste'dodlarning strategik oqimiga qaratilgan bo'lib, malakali xodimlar uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun asosiy manba hisoblanadi⁹³. Iste'dodlar zaxirasini rivojlantirish uzluksizlikni ta'minlaydi va vorislikni rejalashtirishni qo'llab-quvvatlaydi, chunki bu tashkilotlarga kelajakdagi ehtiyojlar uchun iste'dodlarni aniqlash va tarbiyalash imkonini beradi⁹⁴.

Shu bilan birga, tashkilotlarda mavjud iste'dodlardan samarali foydalanish va xodimlarni tanlab ishga qabul qilish kerak. Raqobatbardosh muhit va malakali ishchilar tanqisligini inobatga olgan holda, munosib iste'dodlarni ushlab qolish ustuvor vazifaga aylanadi. Iqtidorlarni rivojlantirish esa ichki o'sishni ta'minlaydi va tashkilotning o'ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda menejerlar va bo'ysunuvchilarning rivojlanishi singari bosqichlarni o'z ichiga oladi⁹⁵. Iqtidorlarni rivojlantirish uchun yagona standartlar mavjud emas, shu bois har bir tashkilot o'z amaliyotini o'ziga moslashtirishi lozim⁹⁶. Bundan tashqari, samaradorlik darajasi bo'yicha haq to'lash madaniyatini shakllantirish xodimlarning qoniqishi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin⁹⁷. Natijaga asoslangan rag'batlantirish tizimi xodimlarni a'lo darajada ishlashga undaydi va tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishga ko'maklashadi⁹⁸.

Milleniallar va Z avlodi mehnat bozoriga kirib kelayotgan bir paytda, tashkilotlar ish beruvchilarning ijobiy brend imijini yaratish ustida ishlashi kerak. Ish beruvchi brendi tashkilotni ishlash uchun yaxshi joy sifatida ko'rsatib, eng iqtidorli kadrlarni jalb qilishga yordam beradi⁹⁹. Kuchli brend obro'si potensial xodimlarga tashkilotning afzalliklari va madaniyatini ko'rsatib bera oladi va uni iste'dodlar uchun yanada jalb qiluvchan qiladi¹⁰⁰. Yakunida, samaradorlikni baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini

⁹² McDonnell, A., & Collings, D. G. (2011). The Identification and Evaluation of Talent in MNEs. 72-89.

⁹³ Lawler, Edward E. "Make Human Capital a Source of Competitive Advantage." Papers.ssrn.com, 20 Oct. 2008, papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1311431, DOI:10.2139/ssrn.1311431

⁹⁴ Bhattacharyya, D. K. (2014). Talent development process of CPSEs: A reflection on practices and requirements. *Journal of Institute of Public Enterprise*, 37(3/4), 91-99.

⁹⁵ Hills, A. (2009) Succession planning – or smart talent management? *Industrial and Commercial Training*. 41(1), 3-8 DOI:10.1108/00197850910927697

⁹⁶ Cheloha, R. and Swain, J., 2005. Talent management system key to effective succession planning. *Canadian HR Reporter*, 18 (17), pp.5-7

⁹⁷ Gilmeanu, R. (2015). Theoretical Considerations on Motivation at the Work Place, Job Satisfaction and Individual Performance. *ProQuest*, [online] 6(3), pp.69–80. Available at: <https://www.proquest.com/docview/1809579701?Sourcetype=Scholarly%20Journals> [Accessed 23 Dec. 2023].

⁹⁸ Al-Dalahmeh, M. (2020). Talent Management: A Systematic Review. [online] Available at: http://ojbe.steconomicsuoradea.ro/wp-content/uploads/2020/06/OJBE_vol-5special_fin-115-123.pdf.

⁹⁹ Sharma, Anshu, and Jyotsna Bhatnagar. 2017. "Talent Analytics: A Strategic Tool for Talent Management Outcomes." *Indian Journal of Industrial Relations* 52 (3): 515–27. <https://www.jstor.org/stable/26536413>.

¹⁰⁰ Moroko, L., & Uncles, M. (2008). Characteristics of Successful Employer Brands. *Journal of Brand Management*, 16, 160-175. <https://doi.org/10.1057/bm.2008.4>

aniqlash uchun tashkilotda doimiy tadqiqotlar o'tkazish zarur. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlarini taqqoslash va so'rovnomalar o'tkazish kabi vositalardan foydalanib, tashkilotlar o'z strategiyalarining samaradorligini baholab, uzluksiz rivojlanishni ta'minlashlari mumkin¹⁰¹. Bunday uyg'unlashgan sa'y-harakatlar O'zbekistonda iste'dodlarni boshqarishni kuchaytiradi hamda raqamli transformatsiya va tashkiliy muvaffaqiyatni rag'batlantiradi.

XULOSA

"Iqtidorlarli kadrlarni boshqarishni takomillashtirish" mavzusida o'tkazilgan tadqiqotda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, quyidagi nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqilgan:

1. Iqtidorlarni boshqarish ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning asosiy bosqichlari – iqtidorli xodimlarni ishga qabul qilish, rivojlantirish va saqlab qolishni o'z ichiga oladi. Iqtidorlarni boshqarishning samarali strategiyalari tashkilot maqsadlariga mos kelishi va texnologik o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishi lozim. O'zbekistonda iqtidorlarni boshqarish jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bu bosqichlarni tushunish muhim ahamiyatga ega.

2. Raqamli transformatsiya inson resurslarini boshqarish amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bunda iqtidorli kadrlarni yollash, rivojlantirish va saqlab qolish jarayonlarini takomillashtirish uchun samarali vositalarni taqdim etadi. HRIS platformalarini joriy etishdek texnologik yutuqlar tashkilotlarga real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini berib, iqtidorli kadrlarni boshqarishda yanada aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

3. Tadqiqotda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, xususan, O'zbekistonda texnologik, tashkiliy, tashqi (TTT) va madaniy omillarning iste'dodlarni boshqarish natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganilgan. Aksariyat tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarga qaratilgan bo'lsa-da, bunday ilmiy ish hali o'rganilmagan kontekstlarda HRM amaliyoti haqida tushunchalar beradi, bu esa madaniy jihatdan farq qiluvchi va rivojlanayotgan hududlarda HRISni qabul qilish va iste'dodlarni boshqarishga mahalliy yondashuvlar zarurligini belgilaydi.

4. Ekonometrik tahlillar taklif etilgan iqtisodiy-matematik model iqtidorlarni boshqarish natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni aniq aks ettirganligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijasida HRIS tizimlarining iqtidorlarni boshqarish amaliyotlarini yaxshilashdagi ijobiy ta'sirini aniqlandi.

5. Tadqiqot natijasida iqtidorli kadrlarni boshqarish samaradorligini

¹⁰¹ Božić, V. and Poola, I. (2023). 'The Role of Artificial Intelligence in Increasing the Digital Literacy of Healthcare Workers and Standardization of Healthcare', Apr. 2023, doi: 10.13140/RG.2.2.30715.80165.

baholash uchun qo'llanilgan miqdoriy metodologiya, iqtidorli kadrlarni yollash, rivojlantirish, saqlab qolish singari asosiy iste'dodlarni boshqarish natijalarini baholash imkoniyatini yaratadi va sohada kelajakda empirik tadqiqotlar uchun asosni tashkil etadi.

6. Iqtisodiy-matematik model tahlili natijasida xodimlarning IT kompetentsiyasi, tashkilotning IT infratuzilmasi (texnologik), top menejement qo'llab-quvvatlashi (tashkiliy) hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (tashqi) singari omillar HRIS joriy etish borasida asosiy determinantlar ekanligi aniqlangan. Shuningdek, uzoqni ko'zlash madaniy omili texnologik omillar bilan bog'liq holda HRIS tizimlarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

7. O'zbekistonda HRIS tizimlarini joriy etish uchun aniq yo'l xaritasi taklif etilgan. Boshqaruv joriy etilishida korxonaning strategik maqsadlari bilan moslashtirilib, bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya qilinadi. Shu orqali tashkilot tizim bilan tajriba orttirib, uni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

8. O'zbekistondagi tashkilotlar HRIS tizimlarini joriy etish uchun amaliy tavsiyalar, masalan, keng qamrovli treninglar, rahbariyat ishtiroki va texnologik infratuzilmani rivojlantirish zarurligi aniqlangan. Tashkilotlarga HRIS tizimlarini o'z ehtiyojlari, resurs va imkoniyatlariga mos ravishda joriy etish tavsiya qilingan, bu esa uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi.

9. O'zbekistonda iste'dodli kadrlarni boshqarishni takomillashtirish texnologik, tashkiliy va boshqaruv sohasidagi o'zgarishlarni talab qiladi. Asosiy tavsiyalarga uzluksiz ta'lim madaniyatini rivojlantirish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni takomillashtirish va iste'dodlarni boshqarish strategiyalarini tashkilotning umumiy maqsadlariga moslashtirish kiradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL (DSc.22/30.12.2019. I.85.01) ON AWARD OF
SCIENTIFIC DEGREE OF DOCTOR OF SCIENCE AT THE WESTMINSTER
INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT**

WESTMINSTER INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT

GAPPAROVA DILDARA BAXTIYOROVNA

TALENT MANAGEMENT IN THE AGE OF DIGITALIZATION AND AUTOMATION IN UZBEKISTAN

08.00.13 – Management

ABSTRACT

OF A PHD IN ECONOMICS DISSERTATION

Tashkent – 2025

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophy (Ph.D.) in Economic Sciences registered under the number B2021.2.PhD/I733 at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovations.

The dissertation has been prepared at the Westminster International University in Tashkent.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (English, Uzbek, and Russian (abstract)) on the website www.wiut.uz and on the website «Ziyonet» Informational education portal www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:

Karimov Farxod Pulatovich,

Doctor of Science in Economics

Official opponents:

Muradova Khusniya Muhiddinovna,

Doctor of Science in Economics, Professor

Rakhmanbayeva Roza Abdurakhmanovna

Doctor of Science in Economics, Professor

Leading organization:

**The Academy of Public Policy and Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will take place on _____ «____», 2025 at _____ at the meeting of the Scientific Council № DSc.22/30.12.2019.I.85.01 at Westminster International University in Tashkent. (Address: 100047, Tashkent, Istiqbol str., 12. Tel.: (99871) 238 74 00, e-mail: info@wiut.uz).

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Westminster International University in Tashkent (registration number 6). Address: 100047,

Tashkent, Istiqbol str., 12. Tel.: (99871) 238 74 00, e-mail: info@wiut.uz.

The abstract of the dissertation is distributed on _____ «____», 2025.

(mailing report № ____ dated _____ «____», 2025).

B.A. Islamov

Chairman of the Scientific Council for
the awarding of scientific degrees,
Doctor of Science in Economics,
professor

N.X. Rashitova

Scientific secretary of the Scientific
Council

for the awarding of scientific degrees,
Candidate of Science in Economics

R.R. Abduraupov

Chairman of the scientific seminar
under the Scientific Council for the
awarding of scientific degrees,
Doctor of Science in Economics,
professor

INTRODUCTION (Annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In the era of economic development based on science and technology, the importance of human capital and talented personnel has never been greater in the world. The global human resource management market was valued at \$21.69 billion in 2022, with forecasts projecting an annual growth rate of 12.7 % from 2023 to 2030. This growth is attributed to the increasing need for simplified HR operations supported by the human resource information system (HRIS)¹. Therefore, the use of human resource information systems in talent management, including recruitment, training, and development practices, is gaining significant value for maximizing employee productivity, stimulating innovation, and improving the overall performance of the organization. One unquestionable truth is that digital transformation has had an influence on the world of work over the years, is doing so now, and will continue to do so in the future.

Scientific research is being carried out worldwide on the topic of effective management of talented personnel through the use of digital technologies, so that companies are ready to succeed in a rapidly changing and competitive business environment through the effective management and development of human capital. By conducting research at the international level, leading scientific centers and higher educational institutions around the world, organizations will be able to formulate their strategies based on modern global trends and find the most effective ways to work with employees. These scientifically grounded approaches are of great value in increasing employee efficiency and loyalty to the organization, in making informed decisions, and in simplifying HR processes. Moreover, relatively new practices in modern companies, such as remote and hybrid work models, employee well-being, and inclusivity, are activating scientific trends aimed at researching new approaches to work.

In Uzbekistan, scientific research related to talent management is considered a crucial issue. As our country integrates into the global labor market, it becomes increasingly important for organizations to adapt to a rapidly changing business environment, implement robust talent management strategies, and digitally transform HR processes to gain an advantage in the intensifying competition from both local and international players. As the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev emphasized in his speech at the 78th session of the UN General Assembly, "Developing human capital and nurturing a creative young generation is

¹ Grand View Research. 2023. "Human Resource Management (HRM) Market | Industry Report, 2030." Grandviewresearch.com. 2023. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/human-resource-management-hrm-market>.

one of the strategic objectives of Uzbekistan². “Consequently, enterprises and organizations operating in our republic need to conduct extensive research to establish continuous professional education, implement HR technologies and analytics, study intercultural differences, and develop practical solutions tailored to the local context.

This dissertation research, to a certain extent, contributes to the fulfillment of tasks outlined in the following decrees and resolutions, which determine the steps taken towards the digital transformation of human resources information systems in our republic: Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP- 6079 “Digital Uzbekistan - 2030” dated October 5, 2020¹⁰²; Presidential Decree No. UP- 60 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” dated January 28, 2022¹⁰³; Presidential Decree No. PP-162 “On Measures to Increase the Coverage and Quality of Digital Services, as well as the Digital Transformation of Sectors, Industries, and Territories” dated May 24, 2023¹⁰⁴; Presidential Decree No. UP -37 “On the State Program for the Implementation of the Strategy 'Uzbekistan-2030' in the 'Year of Supporting Youth and Business'” dated February 21, 2024; Resolution of the Cabinet of Ministers No. 492 “On Measures to Improve the Human Resources Management System in Republican and Local Executive Authorities” dated September 22, 2023¹⁰⁵; and other regulatory legal documents adopted in this field.

Relevance of the research to the priority areas of science and technology development in the Republic. This study corresponds to the strategic direction of scientific and technological development in the republic: “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state.”

Problem development status. A number of scientists are conducting scientific and practical international research on the topic of managing talented personnel through human resource information systems and digital transformation of human resource management processes, including: Alam M.G.R.³, Oehley A.M.⁴, Quaosar G.M.⁵, Rahman M. A., Qi X. and Jinnah M.S.⁶, EINakib D.M.⁷, Liu D. and Darbandi M.⁸,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentini Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasini 78-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6679>

³ Alam M. G. R. [и др.]. Critical Factors Influencing Decision to Adopt Human Resource Information System (HRIS) in Hospitals // PLOS ONE. 2016. № 8 (11). С. e0160366.

